



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020, № 5

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **M.Djoraev, Z.Abidova**
Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitiladigan fizika kursning metodologik masalalarini adabiyotlarda bayon qilish darajasi
- 8 **D.V.Djuraev, M.Y.Juraeva**
Приоритетные направления организации процесса непрерывности народного образования Туркестана
- 12 **S.I.Xusanova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlash mazmuni va uni tanlash tamoyillari
- 17 **S.A.Axmedova**
Sport kouchingini uni o'quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish
- 22 **Sh.S.Xojiev**
Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish jarayonida uzviylik tamoiili
- 27 **A.K.Nisanbaeva**
O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda uzviylikni ta'minlash texnologiyasi
- 32 **P.X.Djuraev, D.Majidova**
Модель методической системы педагогического мастерства будущих преподавателей
- 37 **M.N.Iсроилова, Д.Ю.Юлдашев**
Использование инновационных технологий обучения на практических занятиях латинского языка с медицинской терминологией в непрерывном процессе образования
- 41 **Ю.В.Землина**
Внедрение новых учебников как фактор развития профессиональной компетентности руководителя в системе непрерывного образования
- 46 **J.M.Gancheva**
Модели музыкального обучения в системе непрерывного образования
- 51 **J.B.Tolmachov, И.В.Пауфорова**
Социальный-образовательный проект «Мамина школа» как инструмент решения вызовов времени в системе дошкольного образования

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 56 **M.Ataqulova**
Biologiya ta'limida o'quvchi-yoshlarda tadqiqotchilik faoliyatini rivoshlantirishda intellektual xaritalardan foydalanish
- 61 **O.B.Goncharova**
Новые инновационные технологии преподавания русского языка и литературы

MA'NAVIY TARBIYA

- 65 **N.M.Dalimova**
Uzluksiz ta'lim tizimida avlodlarni differentsiatsialash muammosi: nazariy tahlil
- 70 **G.A.Berdalieva**
Bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning samarali metodlari
- 76 **I.A.Oxunov**
O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini uzluksiz rivojlantirish masalalari
- 83 **D.Torezhanova**
Нравственное воспитание учащихся на уроках литературы

KASBG AYO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 84 **B.A.Akbarov**
O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda faol ta'lim metodlaridan foydalanish
- 89 **M.S.Maxmudova**
Mustaqil ta'lim – bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish omili sifatida
- 93 **P.T.Abdugodirova**
O'quvchi – yoshlarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash

XORIJIY TILLARNI O'QITIISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALAABI

- 98 **G.R.Sobirova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida talabala-yoshlarining kasbiy auditir layoqatini rivojlantirish

XORIJIY TA'LIM

- 102 **F.R.Teshaboyeva**
Ta'lim samaradorligini oshirishga oid milliy va ilg'or xorijiy tajribalar
- 107 **A.A.Ysmanova**
Инновационные формы непрерывного повышения образовательного уровня педагогов (на примере Китая)



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QITILADIGAN FIZIKA KURSINING METODOLOGIK MASALALARINI ADABIYOTLARDA BAYON QILINISH DARAJASI

M.DJORAEV,

TDPU professori, p.f.d.,

Z.ABIDOVA,

GulDU

Maqolada o'quvchilarga fizikadan to'laqonli bilim berishga xizmat qiladigan metodologik masalalar, ularga asosiy fizik tushunchalar, qonunlar va nazariyalar kiradi va ular o'quv adabiyotlarda qanday darajada bayon qilinganligiga g'risidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: fizika, fizikadan to'laqonli bilim, metodologiya, metodologik bilim, o'quv adabiyoti.

The article outlines methodological issues that contribute to the full assimilation of the basic physical concepts, laws and theories and their level of presentation in the educational literature.

Key words: physics, full knowledge of physics, methodology, methodological knowledge, educational literature.

В статье излагаются методологические вопросы, которые способствуют полноценному усвоению основных физических понятий, законов и теорий и их уровень изложения в учебной литературе.

Ключевые слова: физика, полноценное знание по физике, методология, методологические знания, учебная литература.

Har qanday jamiyatning rivojlanish darajasi undagi ta'lim tizimi va ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. O'z navbatida fan va texnikaning rivojlanishi fizika va uni o'qitishda qo'llaniladigan metodlarga bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi o'zining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda, chunki, nanotexnologiya va kvant kompyuterlarning yaratilishi, atom va molekularlarning harakat qonuniyatlari va xossa hamda xususiyatlarini tavsiflaydigan statistik qonuniyatlari va ularning metodologik asoslarini ochib berish ta'lim sifatini oshirishiga shubha yo'q. Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi bo'lgan umumta'lim maktablarda o'qitilayotgan fizika kursining metodologiyasini ochib berish, uni o'zlashtirishda alohida o'rin tutadi. Respublika rahbariyati umumta'lim maktablarida o'qitishning mazmuni va metodikasini takomillashtirishga alohida e'tibor bermoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada



rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" PF-4947, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasixalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PF-5712 sonli Farmonlarini ko'rsatish mumkin.

Ta'lim mazmuniga zamonaviy fizikaning (kvant nazariya, relyativistik va statistik) tushunchalarni kiritish va ularning metodologik jihatlarini ochib berish va ularni fundamental fizik nazariyalar darajasida umumlashtirish, o'qitishning turli bosqichlarida izchillik tamoyilini qo'llash, umumta'lim maktablarda fizika o'qitishning ilmiy, g'oyaviy va politexnik jihatlarini ko'tarishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'quv jarayoniga qo'yilayotgan ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatiga bo'lgan va oshib borayotgan talablarni hal qilishga xizmat qiladi. Ilmiy bilimlar tizimini o'quv materialini darajasiga keltirishda uzilishlar mavjud. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun o'quvchilarni fizika fanining metodologiyasi bilan qurollantirmasdan turib, hal qilish mumkin emas.

Xozirgi paytgacha umumta'lim maktablarda asosan o'quvchilarga fizika o'qitish predmetiga taalluqli bilimlar tizimi bilan cheklanib qolgan, shuning uchun ko'pchilik tadqiqotchilar quyidagi kamchiliklarni e'tirof etishadi:

1. Ta'lim mazmuniga zamonaviy fizikaning asosiy g'oyalarini kiritilishiga qaramasdan, ko'pchilik o'quvchilarda eski va noilmiy tasavvurlar saqlanib qolmoqda.

2. Ko'pchilik o'quvchilar o'quv materialining asosiy va ikkinchi darajali, fundamental va amaliy tavsifga ega bo'lgan qismlarini ajrata olmaydi, ular da fizikani vaqt bo'yicha rivojlanuvchi va takomillashuvchi fan ekanligi to'g'risidagi tasavvurlar deyarli shakllanmagan.

3. Ko'pchilik yuqori sinf o'quvchilari olamning fizik manzarisidan olgan bilimlarining o'rni va rolini yaqqol tasavvur qilisha olmaydi, demak, ular umumlashtirishni bilishmaydi, olgan bilimlari ularning e'tiqodiga aylanmagan.

4. Ko'pchilik o'quvchilarda o'quv materialini o'zlashtirishga etarli intellektual malaka shakllanmagan: o'rganayotgan hodisalarni kuzatish va tizimlashtirish, umumlashtirish, ideallashtirish va modellash, o'xshatish, faraz qilish, fikriy tajriba va o'zining nuqtai nazarini isbotlab berish va boshqalar.

Bunday kamchiliklarning yuzaga kelish sababi shundaki, fizik bilimlarning metodologik jihatlarini ochib berilmagan. SHu bilan bir qatorda, metodologik tavsifga ega bo'lgan yangi hodisalar, an'analar, ilmiy-texnik taraqqiyotning natijalarini tushunishga va tahlil qilishga ojizlik qiladi. Bu kamchiliklarni hal qilish uchun



fizikaning metodologiyasi maktab fizika kursining nazariy asosi hamda metodik g'oyalar manbaini tashkil qilishi kerak.

Shunday qilib, ilmiy-texnik taraqqiyotning talablari va jamiyatimizdagi sharoit hamda fizika o'qitishdagi nazariya va amaliyotning holati ob'ektiv va zaruriy tarzda fizika o'qitish metodikasining bo'lg'usi taraqqiyotini taqozo qilmoqda, boshqacha aytganda, maktab fizika kursida metodologiyaning ta'limiy va tarbiyaviy funksiyalarini aniqlash va amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Umumta'lim maktab fizika kursida materialistik dialektikani qo'llanish masalalari (umumiy metodologik darajalari) bevosita o'quvchilardai ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosi bilan bog'liqligi V.F.Efimenko va G.M.Golinlarning doktorlik dissertatsiyasida o'z aksini topgan. Jumladan, V.F.Efimenkoning monografiyasida quyidagi masalalar batafsil bayon qilingan: fizik tushunchalarning ahamiyati va ularning metodologik mazmuni; olamning fizik manzarasi evolyusiyasi konsepsiyasining metodologik funksiyalari; mexikaning; molekulyar fizikaning, elektrodinamikaning; optikaning hamda nisbiylik nazariyasining metodologik masalalari; yadro fizikasining metodologik masalalari. Maqolada ushbu masalalarni etarli darajada hal qilishga urinilgan, lekin keltirilgan fikrlar hozirgi kundagi fizikaning metodologik masalalariga faqat ma'lum darajadagina mos keladi, chunki o'tgan davrda fizikaning metodologiyasi ancha rivojlanib ketdi, shuning uchun ularni hisobga olmasdan iloji yo'q, bu esa maktab fizika kursini o'qitish sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu sohadagi o'qituvchilar uchun o'ta foydali kitob sifatida V.V.Multanovskiyning o'quv qo'llanmasini ko'rsatish mumkin. Uning asosiy mazmunini asosiy fizik nazariyalarning mazmunini tabiatdagi fundamental o'zaro ta'sirlar bilan bog'liqligi tashkil qiladi. Kitobning asosiy vazifasi- moddiy dunyoning yagona fizik manzarasini bayon qilishdan iborat. Bunday manzara o'quvchilarning olamni tushunishida muhim o'rin tutib, olamni tushunishda hamda hodisalar, qonunlar, nazariyalar hamda ularning ichki bog'lanishlarini ko'rsatib beradi. Bunday umumiy masalaning pedagogik jihatlari o'quv materialini quyidagicha uch yo'nalish bo'yicha bayon qilishga imkon yaratadi.

1. O'rta maktabda fizika o'qitishning mazmuni va metodikasi davriy va qonuniy ravishda o'zgaruvchan bo'lib, uzluksiz tarzda takomillashtirishni taqozo qiladi, natijada u uzluksiz ravishda takomillashib boradi. Bilimlar o'quv tizimining mazmuni va tarkibini nazariy jihatdan tahlil qilishni, uning mazmuni va tarkibini aniqlovchi va tuzatuvchi ilmiy tamoyillarni olg'a surishni taqozo qiladi. Yosh avlodni bunday tarbiyalash uchun,



ularda o'ziga xos fikrlash usulini shakllantirish zarur.

2. Fizika kursi yadrosining mohiyatining mazmuniy-mantiqiy tomonlarini ko'rib chiqish va tushunish uchun har tomonlama tayyorgarlik zarur. Bu narsani amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchilarning ijodiy yondashuviga ham bog'liq.

3. Hozirgi vaqtda ushbu maqolada ham, mavjud fizika kursini va uni o'qitish metodikasini ko'rib chiqish ustida ketmaydi. Fizikadan bilimlar tizimiga asoslangan olamning fizik manzarasiga taalluqli daliliy material, o'quvchilarda dialektik-materializmga asoslangan bo'lib, uni o'qituvchilar shakllantirishi lozim.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, maqolada quyidagi muhim masalalar bayon qilingan: fizika o'qitishdagi ilmiy-nazariy fikrlash uslublari; fizik nazariyalar; fundamental o'zaro ta'sirlar va olamning yagona manzarasi; gravitatsion o'zaro ta'sirlar; elektromagnit o'zaro ta'sirlar; kuchli va kuchsiz o'zaro ta'sirlar; fizika o'qitishda nazariy umumlashtirish muammosi.

Yuqoridagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan va maktabda fizika o'qitishda muhim o'rin tutadigan adabiyotlardan yana biri V.N. Mommanskiyning kitobidir. Ushbu kitob o'quvchilarda fizika o'qitishda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda fizika darslari dialektik-materialistik tavsifdagi fizik hodislar, ularni falsafiy umumlashtirish metodikasi bayon qilingan. Unda quyidagi masalalar: ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy komponentlari va ularni amalga oshirish; fizik hodisalarni materialistik talqin qilish; fizik hodisalarni dialektik tavsifini ochib berish; bilish jarayonining dialektik-materialistik tavsifini bayon qilish; olamning fizik manzarasi tasavvurlarini shakllantirish bayon qilingan.

Bilishning umumilmiy metodlariga kelsak, ular to'g'risida didaktik tadqiqotlar umumiy holda, fizika o'qitish metodikasida xususiy holda tadqiqotlar olib borish sust bormoqda. Buning sababi shundaki, falsafada ham alohida fanlarning metodologik muammolarini hal qilish oxiriga etgani yo'q. Mazkur maqolada aynan masalaning ushbu tomoniga urg'u berilgan va uni fizika o'qitish metodikasining muammosi sifatida qaralgan. Maktab fizika kursi ta'limida fizikaning metodologik masalalarini qarash asosida o'quv-tarbiyaviy masalalarni hal qilishni va o'quvchilarda ilmiy-dunyoqarashni hamda olamning fizik manzarasini shakllantirishni dolzarb metodik muammo deb qaralgan. Bu sohada tadqiqot ishlari V.V. Multanovskiyga tegishli bo'lib, u uning quyidagi monografiyasida bayon qilingan.

Respublikamizda ushbu sohaga taalluqli tadqiqotlar CH. Berdievning



“Fizikani o‘qitishda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish” nomli metodik qo‘llanmasida bayon qilingan. Qo‘llanmada maktab fizika kursi bo‘limlarining metodik asoslari tahlil qililib, unga olamning yagona fizik manzarasi tushunchasining kompleks shakllanishi nuqtai nazaridan yondashilgan. Unda fizika o‘qitishning metodologik sifatini oshirishda fizika o‘qituvchilari, pedagogika institutlari talabalari nimalarga ko‘proq e‘tiborni jalb qilishlari zarurligi bayon qilingan.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, umumta’lim maktablarda fizika o‘qitishda metodologik masalalarni hisobga olish va ularni o‘quvchilarda shakllantirish hamda ularda kreativ fikrlashni yuzaga keltirish muammosi fizika o‘qitish metodikasining **dolzarb** muammolaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги” ПФ-494,
2. “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги” ПФ-5712 ,2019 йил, 26 апрел
3. Ефименко В.Ф. Методологические вопросы школьного курса физики.- М.: Педагогика, 1976.-224 с.
4. Голин Г.М. Образовательные и воспитательные функции методологии научного познания в школьном курсе.- Коломна – 1986
5. Бердиев Ч. Физикани ўқитишда илмий дунёқарашни шакллантириш.-Тошкент: Ўқитувчи.1995. -128 б.
6. Djoraev M. Fizika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma – T.: Aby Matbuot – konsalt, 2015.-280 b.
7. Мултановский В.В. Физические взаимодействия и картина мира в школьном курсе. Пособие для учителей. – М.: Просвещение, 1977.- 168 с.
8. Мощанский В.Н. Формирование мировоззрения учащихся при изучении физики.3-е изд. – М.: Просвещение, 1989.- 192 с.



ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА НЕПРЕРЫВНОСТИ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ТУРКЕСТАНА (КОНЕЦ XIX ВЕКА)

Д. У. ДЖУРАЕВ,
декан факультета начальных курсов УзГУМЯ, д.п.н.
М. У. ЖУРАЕВА,
доцент ТИИИМСХ

Мақолада узлуксиз таълим тизимининг ҳар бир босқичида узвийликни таъминлашнинг аҳамияти ёритилади. Таълим тизимининг ҳар бир фуқаро ҳаётидаги аҳамияти ва унга эришиш йўллари муҳимлиги таҳлил қилинади. “Пошшо” Туркистони тарихи таҳлилидан келиб чиқиб Ўзбекистонда ташкил этилган узлуксиз таълим тизимининг рақобатбардош кадрлар тайёрлаш билан бир қаторда камил инсон тарбиясидаги аҳамияти ва тажрибаси таҳлил қилинади.

Таянч сўзлар: устунлик, таълим, узлуксизлик, таъминлаш, ривожланиш, барқарорлик, такомиллаштириш, эркинлаштириш.

В статье поднимается вопрос о важности непрерывности между звеньями народного образования. На примере “царского” Туркестана анализируется значение и роль непрерывности образования в обеспечении стабильности в регионе. Подчеркивается роль преобразований для коренного повышения эффективности проводимых реформ, создания условий для обеспечения всестороннего и ускоренного развития государства и общества, реализации приоритетных направлений по модернизации страны и либерализации всех сфер жизни.

Ключевые слова: приоритет, направление, образование, непрерывность, развитие, стабильность, модернизация, либерализация.

The following article deals with the issues of the importance of public investment in education with the analysis of significance of systematic education in ensuring stability in the region. In addition, it highlights that the education policy of Uzbekistan pays the significant attention to systematic education as a successful development of an individual, welfare of the nation and stability to competitiveness. Moreover, the article presents the real-life examples that the prior goal of systematic education is the development of self-reflection in any period of life and the positive functioning in the society.

Key words: continuity, education, public, competitiveness, welfare, development, stability, investment, personality, region, society.

Развитые страны мира уделяют большое внимание постоянной модернизации системы народного образования, и повышения уровня грамотности среди своего населения. В частности, со стороны специалистов Международного банка, всесторонне изучается роль и значение состояния народного образования в



развитии страны. Исследования показали, что каждый дополнительный образовательный год повышает средний доход личности на 10 процентов. Образование приносит огромную рентабельность, и поэтому оно играет огромную роль в сокращении бедности населения. Инвестиции, вкладываемые в образование, уменьшают преступность среди населения и неравенство в обществе. При изучении рентабельности стратегии дошкольного образования, разработанного в Мичигане 2010 году выяснилось, что каждый доллар, израсходованный для образования, приносит прибыль для общества от 7 до 12 долларов.

Со стороны зарубежных учёных, как одна из актуальных тем, с большим интересом исследуются политико – социологические процессы, состояние народного образования и движение “джадидизм” в Туркестане конца XIX века. Объектом исследования для учёных было и остаётся влияние колониального режима на состояние образованности населения региона.

Просветительство в Туркестане имеет глубокие генетические корни. Усиление философии просветительства в XIX веке связано с объективными причинами отставания среднеазиатских ханств от развития. После завоевания Туркестана Российской империей открылись возможности для проникновения демократических идей, как из Европы, так и из Азии. В свою очередь общение с миром способствовало развитию освободительных идей в регионе. Это были первые шаги в формировании философии национальной свободы. Тем не менее, её сторонники ещё были далеки от того, чтобы возглавлять, организовывать или поддерживать народные восстания, вспыхивавшие в разных участках региона.

Обстановка возникновения в Туркестане первых новометодных школ, как особое звено непрерывности образования народа, говорит о социальных группах, которые стояли за новыми, обновленными школами и определяли их социальную принадлежность и политическую программу. Немаловажное значение в концепции просвещения национальные прогрессисты придавали историко-культурному наследию народов Центральной Азии.

Просветительские действия джадидов сильно настораживало имперские власти, которые и без того старались не оставлять без надзора новометодные школы Туркестанского генерал-губернаторства. Власти усматривали в новометодных школах привить мусульманским детям способности к “восприятию всяких тенденций”, имея в виду антиправительственные настроения.

Бесспорно, эти учебные заведения нельзя назвать в полном смысле слова школами европейского образца, но они были приближены к этому типу не только набором предметных занятий и устройством, но самое главное методом преподавания. В отличие от старых школ, здесь дети осваивали грамоту за 40 дней. Поэтому за сравнительно короткий срок эти школы об-



рели доверие и популярность среди местного населения.

В Хивинском ханстве проблема реформы системы образования решалась гораздо легче. Это обусловлено тем, что хивинский хан Мухаммад Рахим II (Феруз) был известным меценатом культуры, положительно относящийся к технологическим новациям. Так, в 1874 г. по его инициативе в Хиву из России был привезен литографический станок. Открытие новометодных школ в ханстве не встречало сопротивление властей, как в Бухаре. Сам Феруз поддерживал организацию школ, и естественно его примеру следовали многие высокие чиновники ханства.

Мнения учёных о состоянии народного образования Туркестана конца XIX века до сих пор неедины. Некоторые учёные утверждают, что до революции 1917 года на территории Туркестана господствовала массовая неграмотность. Джадиды тоже в общем отрицательно оценивают состояние образованности населения во второй половине XIX века. В частности, на страницах газеты “Садон Туркистон” было издано стихотворение Чулпана о плачевном состоянии народного образования края .

К концу XIX века, в результате использования царскими чиновниками управления народного образования как инструмент для достижения корыстных целей, полностью исчезло соотношение между количеством мактабов и образованностью местного населения. Была утеряна непрерывность образования. Основной причиной такого плачевного состояния местных учебных заведений, в первую очередь, послужила плановая политика “игнорирования” традиционных мусульманских школ и медресе, проводимая первым генерал-губернатором Туркестана К.П. Кауфманом. В результате такой политики полностью выведен из строя механизм управления традиционными учебными заведениями. Была утеряна непрерывность между звеньями этапов народного образования. А финансирование всех звеньев местных учебных заведений целиком перешло в руки царских чиновников на местах.

На основе закрытия множества школ и медресе, лежало отречение местных народов от цивилизации и исторического самосознания. А в остальных запретить обучение мировых предметов, превратить их в сугубо религиозные учебные заведения. Н.П. Остроумов на предложение И.Гаспринского модернизировать мусульманские школы Туркестана отвечает таким образом: “В деле образования инородцев в России нам нужны указания русского члена МНП, а не инородца-татарина ...” .

В указе “Об организации управления учебными заведениями Туркестанского края” от 01.01.1876г. были четко указаны функции управления в следующих пунктах: а) в первую очередь организовать обучение русского населения, проживающего на территории Туркестана, а после организовать



процесс обучения местного населения в “нужном направлении”; б) в Туркестанском крае организовать систему народных учебных заведений. В частности, институт учителей, гимназии, училища, школы, частные и национальные учебные заведения.

Две трети населения Туркестана составляли кочевники. Мактабы для детей кочевников организовывались (в основном их самими) только весной и ранним летом. Этих детей “обучали” в основном студенты медресе во время каникул. А профессиональные учителя работая только весной и ранним летом не могли обеспечить семью в течение года. Таким образом, образование этого слоя населения не была системной и не могло быть и речи о непрерывности. Со стороны Кокандского и Хивинского ханств и Бухарского эмирата оставление этого слоя населения самим себе отрицательно повлияло на общее образованность населения края. По этой причине, первые годы завоевания края колонизаторы стремились в первую очередь “прибрать” эту часть населения в свою сторону.

Сегодня экономики мира усиленно готовятся к грядущей глобальной цифровизации и роботизации, которые потребуют совершенно другие навыки и значительно более высокий уровень человеческого капитала. Хочется, чтобы Узбекистан и другие страны Центральной Азии не упустили возможность улучшить качество образования, дав подрастающему поколению те знания и навыки, которые помогут молодежи преуспеть в жизни, и позволят странам региона идти в ногу с передовыми государствами мира.

Литература:

1. Жим Ён Ким, “Инсон капиталини ривожлантиришдаги узилишлар”, “Foreign affairs” журналы, <http://uza.uz/oz/society/inson-kapitalini-rivozhlantirishdagi-uzilishlar> - 12-07-2018.
2. Указ Президента Республики Узбекистан “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, УП–4947 от 07.02.2017 года.
3. Абдулҳаким Нурбой Биз қандай миллатмиз? // Тафаккур. – Тошкент, 2005, 2-сон. – Б. 10-17.
4. Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи // Т.: Академия, 2000. – Б. 130.
5. Ким П.Г. Уйдирма ва ҳақиқат // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1989 йил 29 октябрь.
6. Бендриков К.Е. “Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924гг.)” // М.: АПН, 1961. – Б. 254.
7. Карлыбаев М.А. Мектебы и медресе города Чимбая и его окрестностей // Тезисы докл. научно-пр. конф. “Шахтемир – Чимбай” – Нукус, 1995. – С. 35-38.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR HAYOT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MAZMUNI VA UNI TANLASH TAMOYILLARI

S.I.XUSANOVA,

O'zRFVA Fuqaro muhofazasi instituti, p.f.n, dotsent

Maqolada ta'lim jarayonida «Hayot xavfsizligi asoslari» kursining mazmunini aniqlash jarayonida markaziy bo'g'in sifatida uning tamoyillari qaralib, unga ko'ra xavfsizlikni ta'minlash materiallari qayta ishlanishi va uni o'quv materialiga aylantirish maqsadida tanlash tartibi, o'qitish metodikasi, tanlangan materiallar hajmi va mazmuni didaktik talablarga javob berishi, nazariy va amaliy jihatdan ilmiy asoslangan bo'lishi, didaktik tamoyillarga amal qilishi lozimligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, xavfsizlik, ta'lim jarayoni, ta'lim mazmuni, didaktik tamoyillar, fanlararo ta'lim integratsiyasi

В статье рассматриваются дидактические принципы как центральное звено в процессе определения содержания курса «Основы безопасности жизнедеятельности» в учебном процессе, согласно которому порядок отбора обеспечивающих безопасность материалов для обработки и трансформации их в учебный материал, его содержание, методы обучения, избранные материалы, должны быть научно обоснованы в теории и практике и должны следовать данным принципам.

Ключевые слова: учащийся, безопасность, образовательный процесс, содержание обучения, интеграция междисциплинарного образования дидактические принципы.

The article considers didactic principles as a Central link in the process of determining the content of the course «fundamentals of life safety» in the educational process, according to which the procedure for selecting safety materials for processing and transforming them into educational material, its content, teaching methods, selected materials, should be scientifically justified in theory and practice and should follow these principles.

Key words: student, safety, educational process, learning content, integration of interdisciplinary education didactic principles.

«Hayot xavfsizligi asoslari» kursi mazmunini aniqlash jarayonida markaziy bo'g'in uning tamoyillari bo'lib, unga ko'ra xavfsizlikni ta'minlash materiallari qayta ishlanadi va uni o'quv materialiga aylantirish maqsadida tanlanadi.

Kuzatish va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasi ko'ra, hozirgi kunda,



Respublikamizda «Hayot xavfsizligi asoslari» kursining mazmuni, o'qitish metodikasi, tanlangan materiallar hajmi va mazmuni didaktik talablarga javob berishi, nazariy va amaliy jihatdan ilmiy asoslangan bo'lishi, didaktik tamoyillarga amal qilishi kerak.

«Hayot xavfsizligi asoslari» kursi mazmuni asosini: integrativlik, tizimlilik, yaxlitlik, funksional to'liqlik, standartlashtirish, umumiy asoslanganlik, fundamentallik, insonparvarlik, evristik, amaliylik, faoliyat, tarixiylik, ekologik, kasbga yo'naltirish, shuningdek, madaniy va dunyoqarash tamoyillari tashkil etadi.

Integrativlik tamoyili turli o'quv fanlarni birlashtirishdir. To'laqonli shaxs tarbiyasi uchun barcha fanlarning muvofiqlashtirilgan harakatlari zarur, ular o'rtasidagi integratsiyani «Hayot xavfsizligi asoslari» kursi amalga oshirishi mumkin.

Integrativlikning semantik dominantlari orasida kursning asosiy tushunchalari (xavf, xavfsizlik, tahlika, avariya, halokat, muhofaza va boshqalar), shuningdek «Hayot xavfsizligi asoslari»ning konseptual bo'g'inlari (yong'in, epidemiya, kimyoviy xavfli ob'ekt va boshq.) bo'lishi mumkin.

«Hayot xavfsizligi asoslari» bilimlarining integratsiyasi ham xavfsizlik uchtaligi formulasiga asoslanadi:

Bunda tabiiy, gumanitar, iqtisodiy, texnik bilimlarning o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi va ikkita jihatga ega. Birinchisi - profilaktika bo'lib, u inson xavfsizligi masalalarini kompleks yechishda oldini olish yondashuvini ta'kidlaydi. «Hayot xavfsizligi asoslari» kursi nafaqat sodir bo'lgan favqulodda vaziyat paytida yoki uning oqibatlarini bartaraf etishda faol va maqsadli harakatlarni o'rgatadi, balki kursning asosiy vazifalaridan biri xavflarning miqdoriy xususiyatlari va ularning oldini olish maqsadida xavflarning koordinatlarini ko'rsatgan holda xavflarni aniqlashdir. Ikkinchisi - ta'limiy, kursning o'zaro bog'liq boshqa vazifalari, xususan, ehtimoliy salbiy oqibatlarni bartaraf etishda chiqim va foydalarni taqqoslash asosida xavflardan himoyalaniş haqidagi bilimlarni umumlashtiradi.

«Hayot xavfsizligi asoslari» o'quv kursida fanlararo ta'lim integratsiyasi tabiiy, texnogen, ekologik tushunchalar atrofida amalga oshiriladi. Bu tushunchalarga: favqulodda vaziyat, tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar, antropogen ekologik omillar, ekologik muammolar, atrof-muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish, sog'liqni saqlash va uning tarkibiy qismlari, ekologik sifat va boshqalar kiradi.

Tizimlilik tamoyili «Hayot xavfsizligi asoslari» sohasidagi ta'lim mazmunini mantiqan bir butun yaxlitlikda bog'laydi. Bu tamoyil ta'lim tizimining barcha elementlari:



ta'lim maqsadi, mazmuni, jarayoni, tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari hamda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro ta'sirini hisobga oluvchi va amalga oshiruvchi ta'lim mazmunini tanlashga tizimli yondashishga asoslanadi.

Yaxlitlik tamoyili ta'lim mazmunini tanlashda jamiyat ehtiyojlarini yaxlit aks ettirish mezoniga, shuningdek, zamonaviy, ilmiy, sanoat, ishlab-chiqarish, texnik, madaniy va ijtimoiy-siyosiy axborotlarga muvofiqlikni nazarda tutadi. Ta'limning to'liq o'zlashtirilgan mazmuni shaxsga uning alohida qismlarini o'zlashtirishdan ko'ra ko'proq narsani beradi. Didaktik tizimning yaxlitligi uning barcha elementlari bilan uzviy bog'lanishini nazarda tutadi va ulardan kamida bittasini olib tashlash tizim birligining buzilishiga va uning qulashiga olib keladi.

Ta'limning funksional to'liqlik tamoyili uning muhim quyi tizimlari majmui funksional jihatdan to'liq bo'lmasa, har qanday tizim, shu jumladan ta'lim tizimi ham faoliyat ko'rsata olmasligini anglatadi. Elementlar komponentlarning funksional ahamiyati ularning tizimdagi o'rni, boshqa elementlar bilan bog'lanishlar soni, ta'lim mazmunini joylashtirishning mantiqiy sxemasidagi o'rni va boshqalar bilan belgilanadi. Agar tizim komponentlaridan biri yo'qotilsa, u qoplanadi, lekin umuman uning faoliyati tiklanmaydi. Masalan, texnik ta'lim istisno qilinganda uning mazmuni tegishli fanlar bilan to'ldirildi, ammo umuman ta'lim samaradorligi keskin pasayadi.

Standartlashtirish tamoyili. Davlat ta'lim standartlari - ta'lim muassasalarini tashkil etish va faoliyat yuritishning majburiy shart-sharoitlari bo'lib, ularsiz pedagogik ta'limni ijtimoiy madaniyatning bir qismi sifatida saqlab qolish va qayta ishlab chiqish mumkin emas. «Hayot xavfsizligi asoslari» o'quv kursini standartlashtirishning asosiy ob'ektlari uslubiy tizimning tuzilishi va mazmuniy tarkibiy qismi (ta'lim mazmunining tavsifi) va o'quvchilarni fanning muayyan hajmi doirasida o'qitish uchun zarur bo'lgan talablar hisoblanadi.

Umumiy asoslanganlik tamoyili «Hayot xavfsizligi asoslari» kursida ko'tarilgan masalalar yuqori darajada ixtisoslashmagan holda, ko'pchilik uchun mumkin qadar ahamiyatli bo'lishi lozimligini nazarda tutadi. Masalan, «inson-atrof-muhit» tizimini tashkil etishning turli darajalaridagi (mahalliy darajadan transchegaragacha) holati haqidagi savollar barchaning manfaatlariga ta'sir etadi va hozirgi vaqtda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ham ta'lim mazmunining dolzarbligi tamoyiliga mos keladi.

Fundamentallik tamoyili zamonaviy tabiiy fan, ijtimoiy va texnik fanlarning asosiy qoidalari va g'oyalari asoslangan ta'lim mazmunida (qonuniyatlar va qonunlar, tamoyillar va yondashuvlar) nazariy asosning mavjudligini belgilaydi.



«Hayot xavfsizligi asoslari» kursida ta'limning tub mohiyatiga boshqa fanlar — biologiya, kimyo, fizika, geografiya, jismoniy tarbiya, tibbiyot, texnika va qator ijtimoiy fanlarning fundamental bilimlari orqali erishiladi.

Insonparvarlik tamoyili tarkibiy materialda rivojlanayotgan salohiyat mavjudligini nazarda tutadi. V. I. Zagvyazinskiy ta'kidlaganidek, bu salohiyat insonparvarlik yo'nalishi va instrumental konstruktivlikka asoslangan. Instrumental konstruktivlik transformatsiya faoliyatni harakatga keltirish, yaratish va o'tkazish qobiliyatini o'rgatishdan iborat. Tamoyilga ko'ra, har qanday fanning markazida inson bo'lishi kerak.

Amaliylik tamoyili dolzarb amaliy muammolar, hayotiy muammolar va vaziyatlarni hal etishga qaratilgan. «Hayot xavfsizligi asoslari»ning ko'rinishi amaliy inson faoliyati va ushbu faoliyat jarayonida yuzaga kelgan xavfsizlik muammolarining yechimlariga bog'liqdir.

Faoliyat tamoyili amaliylik va evristik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tamoyil, ayniqsa, ayrim o'ziga xos ko'rsatkichlarning tez o'zgaruvchanligida, favqulodda vaziyatlarning tez o'zgarishida o'quvchilar tavsifiy xarakterdagi «tayyor bilimlar»ga emas, balki muayyan vaziyatdagi faoliyatning aniq algoritmlarga egaligi bilan ahamiyatlidir.

Tarixiylik tamoyili ta'lim mazmuniga jamiyatning rivojlanish tarixi masalalarini kiritishni va «Hayot xavfsizligi asoslari» bo'yicha bilimlarni umumlashtirishni belgilaydi.

Ekologik tamoyil zamonaviy sharoitda inson va jamiyat xavfsizligi muammolarini atrof-muhit holatidan ajralgan holda ko'rib chiqish befoya ekanligi sababli, «Hayot xavfsizligi asoslari» orqali o'quvchilarning qadriyatlarga asoslangan ekologik yo'nalishini shakllantirish kerak.

Madaniy tamoyil ta'limning eng oliy maqsadi — shaxs madaniyatini shakllantirish: tarixiy merosga chuqur, ongli, hurmat bilan munosabatda bo'lish, bugungi kunni ijodiy idrok etish va o'zgartira olish qobiliyatidir.

«Hayot xavfsizligi asoslari» ta'lim mazmunida madaniy tamoyilini amalga oshirish uchun, yangi, milliy, madaniy urg'u berish orqali shakllantirish zarur. Shu sababli, o'quv materialiga O'zbekiston milliy xavfsizligi va xalqaro ijtimoiy huquq bo'yicha savollarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Aksiologik tamoyil mazmundagi umuminsoniy va ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatlarga mos keladigan shaxsiy qadriyatlarni o'zlashtirishga asoslanadi. Afsuski, bugungi kunda yosh avlod ko'pincha O'zbekistonning



tarixiy, etnik, geografik va iqlim xususiyatlarini tushunmaydilar va e'tiborsiz qoldiradilar, bu milliy madaniyatning eng muhim elementlarini yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Dunyoqarash tamoyili «Hayot xavfsizligi asoslari» kursi o'quvchilarning dunyoqarashini faol shakllantirishi va ularni inson hayotini qadrlashga o'rgatishi kerak. Ushbu tamoyilga asoslanib, ta'lim mazmunini tanlashda, shaxsning o'z faoliyatida kelajakda maqsad qilib qo'yishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajribaga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kasbiy-yo'naltirish tamoyili ta'lim mazmunini umumiy ta'lim tizimining ehtiyojlariga muvofiq aniqlashtirishni nazarda tutadi. Davlat ta'lim standartiga ko'ra psixologik-pedagogik bilimlar «Hayot xavfsizligi asoslari»ning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu bilimlar o'qituvchiga: o'quvchining o'quv-kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllanishiga sharoit yaratish; muayyan o'quvchilar guruhi uchun eng yaxshi ta'lim texnologiyalarini topish; o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning «mohiyatli izohini» ni topish; o'quvchining o'zini anglashiga imkon beradigan o'qitiladigan kursning imkoniyatlarini aniqlash; muayyan ta'lim muassasasi an'analari va yangiliklarining birligi va o'ziga xosligini aks ettiruvchi ta'lim tushunchasini amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абаскалова Н.П. Теория и методика обучения БЖД: Учеб. пособие/ Новосибирск: Сиб. унив. изд-во, 2008. 135 с.
2. Белов С.В., Девисилов В.А. Концепция непрерывного образования в области БЖД// ОБЖ. Основы безопасности жизни. 2003. № 3. С. 23–30.
3. Инсон ва табиат: Ўқитувчилар учун методик қўлланма/А.Тўхтаев, Э.Турдиқулов, М.Расулов ва бошқ. –Т.: F.Фулом нашриёти, 2003. -111б.
4. Инсон хавфсизлиги алифбоси. 3-4 синф учун қўлланма. Рахмонов И., Ахмедова Н., Обидова Ф., Хусанова С. ва бошқ.-Т.: «Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти», 2003.-376.
5. Кириллов Г.Н. Обучение учащихся и студентов по вопросам безопасности жизнедеятельности // Право и безопасность. 2004. № 1.
6. Tojiev M.X., Ne'matov I., Ilxamov M.X. «Hayot faoliyati xavfsizligi» ma'ruzalar matni to'plami. Toshkent-2009.159-b.



SPORT KOUCHINGINI UNI O'QUVCHILARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH BILAN UYG'UNLASHTIRISH

S.A.AXMEDOVA,

Navoiy DPI o'qituvchisi

Maqolada kouching strategiyalari, akmeologik mezonlar (kasbiy motivatsiya, shaxsiy-kasbiy sifatlar, o'zini o'zi boshqarish, refleksivlik, kreativlik)ning faoliyat talablari va o'quvchilarni jismonan rivojlantirish metodologiyasi bilan integrativ uyg'unligini ta'minlash masalalari o'z aksini topgan.

Tayanch tushunchalar: jismoniy tarbiya, sport, kouching, o'quvchi, o'qituvchi, kasbiy faoliyat, motivatsiya, shaxsiy-kasbiy sifatlar, rivojlanish.

The article discusses issues related to the strategies of coaching physical education teachers, the integration of the criteria of acmeology (professional motivation, personal professionalism, self-management, reflexivity, creativity) and methods of professional development of students.

Key words: physical education, sports, coaching, training, professional activity, teacher, student, motivation, personal and professional qualities, development.

В статье рассматриваются вопросы, связанные со стратегиями коучинга учителей физического воспитания, интеграцией критериев акмеологии (профессиональная мотивация, личный профессионализм, самоуправление, рефлексивность, креативность) и методиками профессионального развития учащихся.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, коучинг, обучение, профессиональная деятельность, учитель, ученик, мотивация, личностно-профессиональные качества, развитие.

So'ngi yillarda mamlakatimizda sport ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bunda uzluksiz ta'limning barcha pog'onalarida jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatga taalluqli didaktik masalalarni echish etakchilik qilmoqda. Chunki jamiyatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topishi bugungi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Yoshlarni diniy ekstremizm, aqidaparastlik, deviant xulqlilik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi jamiyatimizga yot illatlardan asrab-avaylashimiz uchun ularni ommaviy sport ishlariga jalb qilish, tizimli tarbiyaviy metodikalardan foydalanish zarur. Bunda ta'lim muassasasalari, oila, mahalla-kuy, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish lozim. Buning uchun yoshlar orasida sport ishlarini jonlantirish, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar ko'lamini kengaytirish, sayqallashib qolgan uslublardan voz kechib, yangi, zamon talablariga



mos keladigan tizimli metodikani, pedagogik treninglarni ishlab chiqish kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda sport kouchingi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yoshlarni sport ishlariga jalb qilish natijasida ularning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o'sishi, jamiyat tomonidan belgilangan xulq normalariga rioya qilishi, tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy tajriba orttirishi uchun imkoniyatlari kengaymoqda. Uzlüksiz ta'lim tizimining asosiy pog'onalaridan biri - umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari huquqbuzarliklari va jinoyatchiligi profilaktikasini takomillashtirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da¹ yangi mazmundagi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish vazifasi qo'yildi, uning tarkibida esa ta'lim muassasalarida huquqiy-me'yoriy asoslarni modernizatsiyalash bosh yo'nalish sifatida belgilanib, bu borada yoshlarning jismoniy madaniyatini shakllantirish, ularni sport ishlariga jalb qilish tizimini takomillashtirish muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni, "Besh tashabbus" dagi asosiy g'oyalar yoshlarni ijtimoiy faol, mustaqil fuqarolik pozitsiyasiga ega qilib tarbiyalashda asosiy yo'llanna bo'lib xizmat qilmoqda.

"Sport sohasidagikouch (murabbiy)shaxsni ham jismoniy chiniqtirishga, ham ta'lim olishga undovchi, shaxsiy va ijtimoiy hayotida maqsadli faoliyatni tashkil qilishga o'rgatuvchi, kasbiy va shaxsiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi konsultant-maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi". Binobarin, sport kouchingi jismoniytarbiyadarslarida tahsil oluvchilarning jismoniy sifatleri bilan birga, dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo echimini topa oladi. Bu sifat- o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda kurash, gimnastika, tennis, qilichbozlik, velosport, o'q otish, dzyudo, engil atletika, og'ir atletika, taekvondo, eshkak eshish, shaxmat, futbol, bolalar sporti, voleybol, gandbol, karate, kikkoksing, muaytay, ot sporti, regbi, stol tennisi kabi sport turlari rivojlanmoqda. Shu bilan birga, **butun jahonda keng ko'lamda quloch yozayotgan sport kouchingini rivojlantirishga ham ehtiyoj sezilmoqda.**

"Kouch" ("coach") atamasi sport sohasida XX asrda paydo bo'ldi. Ingliz tilida: "coach" - «trener», "murabbiy" degan ma'noni bildirib, rahbarlik qilish,



sportchilarga ustoz va murabbiylik faoliyatini olib borish mazmunida ishlatiladi”. Zamonaviy sport jamoalarida guruh menejrlari, rahbarlari bilan birga, kouch maslahatchilari paydo bo’la boshladi. Tadqiqot doirasida “kouching” atamasini ham tavsiflash joiz.

Kouching – sport sohasida murabbiylik, yo’lboshchilik qilish, tahsil oluvchi va tarbiyalanuvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirish faoliyatidir. Bu jarayonning samaradorligini oshiruvchi quyidagi tamoyillar mavjud:

- o’quvchilarning jismoniy kamoloti masalalarini o’rganish;
- yoshlarning motivatsiyasi, qiziqishlarini inobatga olgan holda innovatsion faoliyatni tashkil qilish tizimini ishlab chiqish;
- Jismoniy tarbiya darslarida o’quvchilarga taqdim qilingan topshiriqlar reproduktiv, rekonstruktiv xarakterga ega bo’lishini ta’minlash.

Tizimli reja asosida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda «Kamolot» yoshlar harakati, «Xotin-qizlar qo’mitalari, «Mahalla oqsoqollari», mahallalarda diniy ma’rifat, ma’naviyat va axloqiy tarbiya bo’yicha mutasaddilar faol ishtirok etishlari kerak.

“Yosh sportchilar”, “Liderlar”, “Faxriy sportchilar”, “Alpomish”, “Barchinoy” kabi sport klublari tashkil qilinib, unda sport ishlarini takomillashtirishga qaratilgan ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy o’qishlar, turli sport tadbirlarining o’tkazilishini ta’minlash zarur. Bu klublar faoliyati viloyat, shahar, tumandagi pedagoglar, sport jamoalari mutasaddilari, keng jamoatchilik tomonidan nazorat ostida bo’lishlari kerak.

Jismoniy tarbiya ishlari o’quvchilarning kelgusidagi pedagogik faoliyatini innovatsion tashkil qilishga, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, mustahkam iroda va sport texnikasining darajasi (nazariy, metodik saviyasi) barcha qirralarini qamrab olishga va ularning malakasini uzluksiz takomillashib borishiga xizmat qiladi. Ushbu metodik xizmatda o’quvchilarning sportchilik mahorati, mustahkam irodasi va insoniy fazilatlarini yaxlit mujassam ob’ekt sifatida tadqiq qilindi. Sport kouchingining asosiy mezonlari o’quvchilarda sport texnikasi va malakasini oshirish orqali ma’naviy-axloqiy fazilatlar, bilim, ko’nikma va malakalarining takomillashuvi, madaniy saviyasining o’sishida ularga aniq faol yordam berish, pirovard natijada ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishdan iborat bo’ldi.

Sport kouchi esa, har bir sportchining hayoti va faoliyati mobaynida mavjud bo’lgan to’siqlarni engib o’tishga, jismoniy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarini rivojlantirishga, muvaffaqiyatsizliklarini esa, osongina hal etishga o’rgatadi.

3-topshiriq. Amyobaning organoidlarini nomini toping. Rasm namoyish qilinadi.

4-topshiriq. Sxemani to'ldiring.



5-topshiriq. Savollarga javob bering.



Biologik nuqtai nazaridan quyidagi tasdiqlarni tushuntiring: «Bir hujayralar faqat optimal muhitda normal yashashi mumkin».

- 2) Bir hujayralilar faqat optimal muhitda uchrashi haqida ilmiy dalillar keltiring.
- 3) CHig'anoqli amyoba qaysi turkumga kiradi?
- 4) Ichburug' amyobasi va og'iz amyobasini tuzilishini solishtirma o'rganing?
- 5) Ildiz oyoqlilar turkumiga qaysi turlar kiradi?
- 6) Soxta oyoqlarning qanday turlarini bilasiz?
- 7) Lapopodiy tuzilishga ega bo'lgan soxta oyoqlar qaysi turlarda uchraydi?
- 8) Ninasimon tuzilishga ega bo'lgan soxta oyoqlar qaysi turlarda uchraydi?
- 9) Nursimon tuzilishga ega bo'lgan soxta oyoqlar qaysi turlarda uchraydi?
- 10) Foraminifera so'zining ma'nosini ayting?
- 11) CHig'anoqli amyobaning lotincha nomini ayting?
- 12) Amyobalarning qaysi turi jinsiy ko'payadi?

6-topshiriq. Muammoli izlanishga doir topshiriqlar
«Amyobaning tuzilishi» sxemasini to'ldiring va o'qing. Sxema namoyish etiladi.

7-topshiriq. suvda muhitida yashovchi bir xujayralilarni barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini isbotlang.

8- topshiriq.

Fagotsitoz–yot jismlarni aniqlash, tutish va yo'q qilish jarayoni.

Pinotsitoz – suyuq oziqlar bilan oziqlanish va yo'q qilish jarayoni

Sista-noqulay sharoitda yashovchanlikni saqlab qolish

Vakuola-bosimni, nafas olishni va ayirish vazifasini bajaradi

Soxta oyoqlar- harakatlanish va oziqlanish jarayoniga yordam beradi

Jinssiz ko'payish - yadroning bo'linishi hisobiga ko'payishi

Jinsiy ko'payish- gametalarning qo'shilish jarayoni

9-topshiriq: Dars ma'lumotlarini “Sodda hayvonlar” intellekt xaritasida iflodalang.

Quyidagi atamalardan foydalaning:

Amyoba	-turkum
Faranimifera	- Lapopodiy
arsella	- Chig'anoq tarkibi
og'iz amyobasi	-SaSOz
Ichbo'ro'g' amyobasi	-suv
ko'payish	-mineral tuzlar



- | | |
|-----------------|--------------|
| fagotsitoz | - Gomozigota |
| Ildiz oyoqlilar | -Tur |
| Pinotsitoz | - Yadro |

“Soxta oyoqlilarni” intellekt xaritasini tuzish uchun savollar:

- 1) Soxta oyoqlilarni 2 ta asosiy qismini nomlang.
- 2) Protoplazma tarkibini nomlang.
- 3) Qanday eruvchan plazma oqsilini bilasiz?
- 4) Ildiz oyoqlilarni turlarini nomlang.
- 5) Agar protoplazmada bosim yuqori bulsa bo‘lsa, hujayralarda qanday hodisa ro‘y beradi?
- 6) Agar protoplazmada bosim past bo‘lsa, hujayralarda qanday hodisa ro‘y beradi?
- 7) Og‘iz amyobasi bilan kasallanganda insonlarda qanday holat kuzatiladi?
- 8) Ichbo‘rug‘ amyobasi bilan kasallanganda insonlarda qanday holat kuzatiladi?
- 9) Sarkomastigoforalar tipiga xos xarakterli belgilarni ayting?
- 10). Amyobaning tuzilishi va rivojlanishi qanday?
- 11). Oddiy amyoba bilan chig‘anoqli amyobaning bir – biridan farqi?
- 12). Amyobaning harakatlanishi, oziqlanishi va himoyalaniishi qanday?
- 13). Amyobani laboratoriya sharoitida qanday tekshiramiz?

Intellektual xaritalar talabalarni ijodiy va mantiqiy fikr yuritishga o‘rgatish, aqliy faoliyat usullarini egallashda, ularda ilmiy, tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishda va tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byuzen T. i B. Superмышление / T. i B. Byuzen; per. s angl. E.A. Samsonov. – 4-e izd. – Mn.: «Popurri», 2007, S. 54-55. (v originale «The mind map book»).
2. Bershadskiy M.E. Psixologo-pedagogicheskie osnovaniya metoda kart ponyatiy (<http://tip.psychology.org/ausubel.html>).



НОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

О.В. ГОНЧАРОВА,

преподаватель Кокандский ГПИ

So'nggi o'n yilliklarda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq holda audio va video yozuvlar, kompyuter dasturlari va masofaviy o'qitish o'quv jarayoniga keng joriy etildi.

Ushbu maqola rus tili va adabiyoti darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, rus tili va adabiyoti, metodika, axborot texnologiyalari, o'quv jarayoni, talabalar, kompyuter.*

В последние десятилетия в связи с развитием современных образовательных технологий в учебный процесс стали широко внедряться аудио- и видеозаписи, компьютерные программы, дистанционное обучение.

Данная статья посвящена использованию инновационных технологий на уроках русского языка и литературы.

Ключевые слова: *инновация, русский язык и литература, методика, информационная технология, учебный процесс, учащиеся, компьютер.*

In recent decades, in connection with the development of modern educational technologies, audio and video recordings, computer programs, and distance learning have been widely introduced into the educational process.

This article is devoted to the use of innovative technologies in the lessons of the russian language and literature.

Key words: *innovation, Russian language and literature, methodology, information technology, educational process, students, computer.*

Инновационные методики характеризуются новым стилем организации учебно-познавательной деятельности учеников. Современные педагоги признают, что в развитии творческих способностей, интеллектуальной деятельности максимальные возможности представляет технология проблемного обучения. Значительный вклад в раскрытие проблемы интеллектуального развития, проблемного и развивающего обучения внесли Н.А.-Менчинская, П.Я.Гальперин, Н.Ф.Талызина, Т.В.Кудрявцев, Ю.К.Бабанский, И.Я.Лернер, М.И.Махмутов, А.М.Матюшкин, И.С.Якиманска, А.К.Мынбаева, З.М.Садвакасова.

В научных литератур доказано что в последние десятилетия в связи с развитием современных образовательных технологий в учебный процесс



стали широко внедряться аудио- и видеозаписи, компьютерные программы, дистанционное обучение. Информационные технологии обогащают учебный процесс во многих областях знания, в самых различных условиях обучения и на всех его уровнях. В полной мере это относится к преподаванию иностранных языков особенно за рубежом, где непосредственный контакт с изучаемым языком ограничен.

В рамках данной технологии ученик действительно становится активным субъектом учебного процесса, самостоятельно владеющим знаниями и решающим познавательные задачи. Цель таких методик — активизировать, оптимизировать, интенсифицировать процесс познания. Инновационное обучение предполагает обязательное включение учащихся в деятельность, коллективные формы работы, обмен мнениями.

Особенностями инновационного обучения являются:

- работа на опережение, предвосхищение развития;
- открытость к будущему;
- направленность на личность, её развитие;
- обязательное присутствие элементов творчества;
- партнёрский тип отношений: сотрудничество, сотворчество, взаимопомощь и др.

Инновациями в образовании называют новшества, нововведения в содержании образования, в формах и методах обучения, в отношениях «преподаватель – студент», использовании информационных технологий обучения, внедрение нового оборудования, в организации учебно-воспитательного процесса, его управлении и др.

Инновационные технологии позволяют реализовать одну из основных целей обучения русскому языку и литературе - дать возможность перейти от изучения предмета как системно-структурного образования к изучению его как средства общения и мышления, а учебно-познавательную деятельность перевести на продуктивно-творческий уровень.

Для развития интереса к русскому языку и литературе следует включать в урок исторические, этимологические справки, которые могут заинтересовать детей, проводить игровые формы работы: «Составь слово», «Третий лишний», «Переводчик», «Эрудит», «Собери пословицу», «Шеренга», «Перевертыш», «Паутина слов» и др., использовать творческие эксперименты, метод проектов, нестандартные уроки, конкурсы, олимпиады



На уроке следует применять перспективные методические приёмы для развития креативных способностей учащихся: кластеры, инсерт (при самостоятельном изучении теоретического материала), заполнение таблиц, двухчастный дневник, чтение с остановками, совместный поиск, перекрёстную дискуссию, круглый стол; применять элементы ТРИЗ (технологии решения изобретательских задач): «Удивляй!» (при знакомстве с биографией писателя), «Лови ошибку!»; классическое лекционное обучение, обучение с помощью аудиовизуальных технических средств, тесты, метод проектов (занятия по «Литературному краеведению»).

Используя в работе технологию развития критического мышления, наиболее приемлемыми для себя я считаю такие приемы, как дискуссия (от лат. – исследование, разбор, обсуждение какого-либо вопроса).

Дискуссия — одна из весьма сложных форм речи, для овладения которой необходима предварительная подготовка с речевыми штампами, помогающими ребята выражать свои мысли. Данный прием особенно эффективен на уроках литературы при обсуждении и анализе художественного произведения. Групповая дискуссия может использоваться как на стадии вызова, так и на стадии рефлексии. При этом в первом случае ее задача: обмен первичной информацией, выявление противоречий, а во втором – это возможность переосмысления полученных сведений, сравнение собственного видения проблемы с другими взглядами и позициями. Форма групповой дискуссии способствует развитию диалогичности общения, становлению самостоятельности мышления.

Эффективным также нахожу на некоторых уроках чтение с остановками и вопросы Блума (условное название методического приема организации чтения с использованием разных типов вопросов).

Например, урок-семинар имеет повторительно-обобщающий характер.

Она способствует формированию научного стиля речи, самооценке собственных высказываний, оказывается эффективной формой контроля и самоконтроля, ребята учатся работать самостоятельно, пользоваться научной литературой. Основой содержания урока-семинара служит теория. Ведущая цель - формирование теоретического мышления, которое позволит учащимся самостоятельно отбирать, изучать информацию и применять полученные знания на практике.

В соответствии с задачами повторения разделов семинарские занятия



можно организовать по следующим темам: «Состав слова и словообразование», «Морфология. Самостоятельные и служебные части речи», «Пунктуация простого предложения» и т.д.

Уроки такого плана требуют тщательной подготовки и ученика, и учителя. Воспитательная и образовательная ценность семинаров неоспорима. Она заключается, прежде всего, в том, что школьники учатся самостоятельно работать с научной литературой, строить свои выступления в соответствии с предложенным планом, а это готовит учеников и к обучению в вузе.

Одним из современных требований к уроку русского языка является работа с текстом. В связи с этим я использую в своей работе такую форму урока, как исследование. В самом названии «урок - исследование» просматривается основная задача - исследование языкового материала на основе текстов.

Особое внимание при подготовке к такому уроку следует обратить на выбор текста. Текст должен быть высоко художественным, при этом необходимо учитывать и возрастные особенности учеников, и объём исследуемого материала. Целесообразно использовать для анализа тексты разных авторов, объединённых общей темой, тексты разных стилей и типов речи, чтобы впоследствии провести сравнительный и сопоставительный анализ.

На таком уроке перед учителем возникает задача: исследовать язык художественного текста /нескольких текстов/ «под лингвистическим микроскопом» и вместе с тем не лишиться художественное произведение его поэтического очарования и целостности. Как правило, перед таким уроком знакомя с произведением на уроке литературы, чтобы они имели представление о произведении в целом. При всем многообразии и эффективности нетрадиционных уроков использовать их часто нельзя по целому ряду причин. Но ведь так хочется, чтобы каждый урок был особенный, со своей «изюминкой».

Литература:

1. Мынбаева А.К., Садвакасова З.М. Инновационные методы обучения или как интересно преподавать: Учебное пособие. А, 2009
2. Педагогические мастерские: теория и практика. Сост. Н. И. Белова, И. А. Мухина. СПб, 1998.
3. Соосар Н., Замковая Н. Интерактивные методы преподавания и учения. СПб, 2004.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA AVLODLARNI DIFFERENSIATSIYALASH MUAMMOSI: NAZARIY TAHLIL

N.M.DALIMOVA,

O'zMU «Ijtimoiy fanlar» fakulteti
"Psixologiya" kafedrası dotsenti, psixol.f.n.

Ushbu maqolada zamonaviy psixologiya fanida avlodlarni o'rganishning asosiy muammolari ko'rib chiqilgan. Mahalliy va horijiy adabiyotlarning tahlili asosida muallif quyidagi xulosalarga keladi, ya'ni avlodlarni o'rganish avlodlarning keng qamrovli ijtimoiy-psixologik konsepsiyasini yaratishga hissa qo'shishi mumkin. Muallifning fikriga ko'ra, jamiyatda faoliyat olib boradigan avlodlarning tabaqalanishi quyidagi mezonlarga asoslanishi kerak: tarixiy davr; yosh, oilaviy roli va boshqa avlod bilan identifikatsiyasi.

Tayanch so'z va iboralar: avlodlarni o'rganish muammolari, avlodlar differentsiatsiyasi, "avlod" tushunchasi definitsiyasi, avlodlar xarakteristikasi

The article discusses the main problems of the study of generations in modern psychological science. Based on the analysis of domestic and foreign literary sources, the author comes to the conclusion that the study of generations can contribute to the construction of a comprehensive socio-psychological concept of generations. According to the author, the following criteria should underlie the differentiation of the generations functioning in society: historical epoch, age, family role and identification with one generation or another.

Key words: problems of studying generations, differentiation of generations, definition of the concept of "generation", characteristics of generations.

В статье рассматриваются основные проблемы изучения поколений в современной психологической науке. На основе анализа отечественных и зарубежных литературных источников автор приходит к выводу, что изучение поколений может способствовать построению комплексной социально-психологической концепции поколений. В основе дифференциации функционирующих в обществе поколений, по мнению автора, должны лежать следующие критерии: историческая эпоха, возраст, семейная роль и идентификация с тем или иным поколением.

Ключевые слова: проблемы изучения поколений, дифференциация поколений, дефиниция понятия «поколение», характеристики поколений.

O'zbek oilalarida avlodlar o'rtaqidagi bog'liqlik sezilarli darajada mustahkam. Oilalarda farzandlarni avloddan-avlodga o'tib, asrlar osha sayqallanib kelayotgan qadriyatlar, urf-odatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq me'yorlarini farzandlarga yoshligidanoq singdira olishda keksa avlodning o'rni muhim hisoblanadi. Turli avlodlar o'rtaqidagi uzviy bog'liqlik farzandlarimizga ta'lim-tarbiya berishda muhim omil ekanligini unutmaslik lozim.

Avlodlarni o'rganishning asosiy maqsadlaridan biri bu avlodlar o'rtaqidagi



uzviy bog‘liqlikni bolaning ta’lim va tarbiyasiga samarali ta’siri hamda “avlod” atamasiga aniqlik kiritishdir. “Avlod” atamasining psixologik tarkibi juda noaniq bo‘lib qolmoqda, chunki avlodlar turli fanlar doirasida, turli darajada va turli yondashuvlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda “avlod” tushunchasini aniqlash muammosi avlodlarni differensiatsiyalash mezonlarini aniqlash muammosi bilan chambarchas bog‘langan. Doim o‘zgarib turadigan avlodlarning rasmiy chegaralarini belgilash, shuningdek, ijtimoiy differensiatsiyaning boshqa turlari bilan avlodlararo farqlarni bog‘lash juda qiyin.

Avlod o‘zaro ta’sir, madaniy rivojlanish va ijtimoiy-madaniy dinamikaning jamlovchi sub’ektlaridan biridir. Ijtimoiy hodisa sifatida avlodni doimiy, statik emas, balki o‘zaro munosabatlar va o‘zaro bog‘liqlik sifatida belgilash va bilish mumkin. Avlod ijtimoiy jamoa sifatida faqat o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan o‘zaro munosabatlar jarayonidagina shakllanadi. YA’ni nafaqat yangi avlod oldingisiga bog‘liq, balki oldingi avlodlar ham yangilarga bog‘liq. Bu bog‘liqlik konkret kundalik o‘zaro munosabatlarda, o‘tmish tajribasini idrok qilishda va kelajakdagi tajribani bashorat qilish hamda loyihalashda namoyon bo‘ladi: qanday o‘tmish tajribasi qimmatli hisoblanadi va nima uchun, qanday amaliyot va tajribani bilish va ishlatish kerak, qanday ma’nolarni saqlab qolish kerak, ertasi bo‘lishi uchun bugun o‘tmishdan olingan qanday rollar va obrazlar kerak bo‘ladi?

Avlod – bu ajralmas ijtimoiy jamoa, yuqori murakkablikdagi birlik, lekin uni ichidan farqlash juda qiyin va, shu bilan birga, uning har bir elementi yuqori darajada integratsiyalangan. Avlod, bir tomondan, institutsional vositalar va jarayonlar bilan boshqarilishi mumkin, ammo, boshqa tomondan, avlodlararo jarayonlarni “tashqaridan” boshqarish juda qiyin. Bu murakkablik, avvalo, avlodning – “tegishli makon va zamon modeli – ijtimoiy jarayon modeli orqali odamlar o‘zaro yaratadigan” “ko‘p qirrali integrallashgan birlik” yoki figuratsiyalar bilan bog‘liq.

Shuning uchun avlodlarni differensiatsiyalash uchun bir nechta mezonlarni tanlash g‘oyasi paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilarning qarashlari avlodlarning asosiy (dominant, yadroviy) xususiyatlarini aniqlashda farq qiladi. Masalan, 3.Orteg- i-X.Gasset avlod ikkita belgisi bilan ajralib turadi, deb hisoblagan: bular – yoshning birligi va hayotiy aloqalarning mavjudligi [1,33].

Boshqa mualliflar ham avlodlar differensiatsiyasida yoshning roli haqida gapiradilar. A.I.Afanaseva avlodni “ob’ektiv ravishda rivojlanayotgan, yosh bo‘yicha bir-biriga yaqin va shu tarixiy davrda shakllangan odamlarning tarixiy birlashmasi”, deb ta’riflaydi[4,20-24]. A.V.Tolstoy avlod deganda, “ota-onalar va



ularning farzandlari o'rtacha yoshi o'rtasidagi vaqt oralig'i'ni tushunadi. Bu nuqtai nazardan farqli o'laroq, amerikalik sotsiologlar N.Xouv va U.SHtraus, o'rta sinf qadriyatlarini o'rganish asosida quyidagi xulosaga keladilar: avlodlarning fikrlash va harakatlarini aniqlaydigan eng muhim omillar yoshi emas, balki inson o'sgan muhit va oiladagi tarbiya normalari, ya'ni ulg'ayishning tarixiy davri[5,290-295].

Avlodlar differentsiatsiyasi mezonlarini aniqlash muammosining muhim jihati – parametrlarni aniqlashdir. Oiladagi ijtimoiy rol va tarixiy davr kabi mezonlarning parametrlari aniqroq belgilangan. Kelishuv avlodning yosh parametrlari yuzasidan kamroq kuzatiladi.

Ko'pchilik mualliflar oiladagi rolga ko'ra avlodlarning uch qismga bo'linishi keng tarqalganligini haqli ravishda ta'kidlaydilar: buvi (buva), ona (ota), bolalar (nabiralar) [7,55-59]. SHuni ta'kidlash kerakki, psixologiyada oilaviy rollarni tahlil qilish asosan avlodlararo o'zaro munosabatlar muammosini o'rganishga qaratilgan.

V.I.Pushkning ta'kidlashicha, masalan, Rossiyada sotsializm davri postsovet davri bilan almashtirilgan, buning natijasida ijtimoiy-madaniy kontekst o'zgargan. Muallif o'z tadqiqotlarida zamonaviy Rossiyadagi uch avlodni ko'rib chiqadi: sovet, postsovet va o'tish davri[8,80-88].

Yu.A.Levada Rossiya tarixida quyidagi burilish nuqtalarini aniqladi: 1905-1930-yillar – inqilobiy burilish nuqtasi; 1930-1941-yillar – “stalincha” safarbarlik tizimi; 1941-1953-yillar – urush va urushdan keyingi davrlar; 1953-1964-yillar – “iliqlik”; 1964-1985-yillar – “turg'unlik”; 1985-1999-yillar – “qayta qurish” [9,507]. M.I.Postnikova ushbu tasnifga yana bir tarixiy davmni — iqtisodiyotni barqarorlashtirish davrini qo'shadi. Zamonaviy Rossiyada bu tipologiyadan foydalanish natijasida besh avlod ajralib chiqadi: urushdan oldingi va harbiy; “oltmishinchi yillar” avlodi, “turg'unlik” avlodi; “qayta qurish” avlodi; postsovet avlodi; Putinning barqarorlashuv avlodi.

Avlodlar differentsiatsiyasining ob'ektga oid mezonni parametrlarini tahlil qilganda ko'p savollar tug'iladi. Hozirgi zamon yosh psixologiyasida yoshning rivojlanish davrlarini va ularning chegaralarini aniqlashga turli xil yondashuvlar mavjud. Rivojlanishni davrlarga bo'lish bo'yicha mahalliy qarashlarni umumlashtirib, quyidagi ob'ektlarni ajratish mumkin: bolalik, o'spirinlik (yoshlik), balog'at (etuklik), keksalik.

Empirik tadqiqotlar doirasida u yoki bu avlod bilan shaxsni aniqlash mezon, bizning fikrimizcha, muhim ahamiyatga ega. Tarbiyada nafaqat yosh, oilaviy o'rin, madaniy-tarixiy shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Avlodlarni o'rganishda o'z avlodining qadriyatlarini inson tomonidan ajratish masalasi alohida o'rin tutadi. Bu savolga inson o'zini qaysi avlod bilan tenglashtirishini, qaysi avlodning qadriyatlarini qabul qilganligini o'rganish orqali aniqlik kiritish mumkin.



Shunday qilib, avlodlar differentsiatsiyasi muammosi mezonlar soni va tizimni tashkil etuvchi mezonni belgilash borasida fikrlar birligining yo‘qligi bilan bog‘liq, degan xulosaga kelish mumkin. Tez-tez tilga olinadigan uchta mezon (tarixiy davr, yosh va oilaviy rol) ning har birining parametrlarini aniqlash masalalari ham etarlicha ishlab chiqilmagan. Fikrlarning bunday xilma-xilligi turli tadqiqotlar natijalarini taqqoslash jarayonini qiyinlashtiradi.

Avlodlar muammosini bugungi kunga kelib muayyan o‘rganilganlik darajasi quyidagi qarama-qarshiliklar guruhi tobora aniqroq namoyon bo‘layotganini anglatmoqda:

1) zamonaviy jamiyatda avlodlarni o‘rganish uchun yuqori darajadagi talabning mavjudligi va bu muammoning etarli darajada o‘rganilmaganligi;

2) odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar amaliyotida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarurligining ko‘plab ko‘rsatkichlari va bu xususiyatlarning fundamental tadqiqotlari yo‘qligi.

Shuning uchun, avlodlarning differentsiatsiyasi mezonlari va ularning parametrlari to‘g‘risidagi yuqorida bayon qilingan fikrlarga asoslanib, Rossiyada asosiy avlod qatorlarining umumiy kesimini aniqlashga harakat qilindi.

Hozirgi kunda rus jamiyatida eng faol uch avlod bo‘lib, ularni ulg‘ayishning tarixiy davri nuqtai nazaridan sovet, o‘tish davri va postsovet avlodlariga bo‘lish mumkin. YOsh jihatidan bu avlodlarga quyidagi rivojlanish davrlari mos keladi: o‘spirinlik, yoshlik va etuklik. Turli avlodlar tomonidan bajariladigan oilaviy rollarni quyidagilarga bo‘lish mumkin: bolalar, otalar (onalar), buvalar (buvilar) [10,100-107].

Bu va buvilar avlodi sobiq Ittifoq davrida tarbiyalangan etuk insonlardir. Bu avlod, haqiqatan ham, jamiyatni boshqaradi, uni tashkil qiladi, barqarorlashtiradi, tajriba va yutuqlarni almashadi, tuzilgan an‘analarni, munosabatlar va axloqiy normalarning tashuvchisi sifatida ishlab, uning (shu avlodning) katta ijobiy potentsiali va muhim samaradorligini belgilaydi. Eski munosabatlar va urf-odatlarida tarbiyalangan holda, ular ayni paytda mavjud yangi bagaj va yangi imkoniyatlardan foydalanib, bu an‘analarni buzadilar, ular bilan xayrlashadilar, yangi shakl va usullarni o‘zlashtiradilar. Ular oldingi an‘analarni asosiy iqtisodiy va siyosiy jihatdan tayanch bo‘lganliklari hisobiga buzadilar.

Ota-onalar avlodi o‘tish davrida (qayta qurish davrlari) ulg‘aygan yoshlardan tashkil topgan. Hozirgi kunda bu odamlar 25-39 yoshga etgan. Bu avlod eng katta tarqoqlik bilan ajralib turadi: mavjud tuzilmalarni saqlashni ta‘minlaydigan inersiya momentiga rioya qilishdan, tubdan yangilarini shakllantirishga faol o‘tishgacha.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bu muammolarni hal qilish avlodlarning murakkab ijtimoiy-psixologik konsepsiyasini qurish orqali amalga oshirilishi



mumkin, uning doirasida avlod umumiy madaniy va tarixiy lokalizatsiya va shunga mos ravishda umumiy tajriba bilan birlashtirilgan avtonom ijtimoiy jamoa sifatida ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatdiki, avlodlarni o'rganishda tadqiqotchilar muqarrar bir qator muammolarga duch keladi, buni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. "Avlod" tushunchasini aniqlash muammosi;
2. Avlodning miqdoriy va sifat xususiyatlarini aniqlash muammosi;
3. Avlodlarning differentsiatsiyalash muammosi, u mezonlarni ajratib ko'rsatish va avlodlarni ajratib ko'rsatish parametrlari muammolariga bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ортер З., Гассет Х. Восстание масс // Эстетика. Философия культуры. - М.: Искусство, 1991. С. 331.
2. Воронков В.М. Проект «шестидесятников»: движение протеста в СССР / Отцы и дети. Поколенческий анализ современной России / Сост. Ю. Левада, Т. Шанин. М.: Новое литературное обозрение, 2005. С. 168—200.
3. Постникова М.И. Психология отношений между поколениями в современной России: автореф. дис. ... докт. психол. наук. - СПб., 2011. 53 с.
4. Афанасьева А.Н. Исторический процесс и смена поколений // Преемственность поколений как социологическая проблема / Под ред. Л.Н. Москвичева. М.: Академия, 1973. С. 20—24.
5. Исаева М.А. Поколения кризиса и подъема в теории В. Штрауса и Н. Хоува // Знание. Понимание. Умение. 2011. № 3. С. 290—295.
6. Алпатова К.А., Семенихина Т.А. Роль ценностей в формировании смыслового поля социализации «Я» и «другого» (на примере теории поколений) // Научные проблемы гуманитарных исследований. 2011. № 6. С. 238—243.
7. Ермолаева М.В. Опосредствование в диалоге через поколение между детьми и пожилыми людьми // Культурно-историческая психология. 2012. № 2. С. 55—59.
8. Пищик В.И. Поколения: социально-психологический анализ ментальности // Социальная психология и общество. 2011. №2. С. 80—88.
9. Левада Ю.А. Сочинения: избранное: социологические очерки, 2000—2005 / Сост. Т.В. Левада. М.: Издатель Карпов Е.В., 2011. 507 с.
10. Сиврикова Н.В. Проблемы изучения поколений в психологии // Культурно-историческая психология. 2015. Т. 11. № 2. С. 100-107.



BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING SAMARALI METODLARI

G.A.BERDALIEVA,

*Sirdaryo VXTXQTMOHM kafedra mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Maqolada bolalarni mustaqil fikrlashda qo'llaniladigan va samara beradigan metodlar, ta'lim metodlari – o'quv jarayonining murakkab tarkibiy komponenti bo'lib, pedagog va talaba, o'qituvchi va o'quvchi, tarbiyachi va tarbiyalamuvchi faoliyatlarining barcha yo'nalishlarini yoritishga xizmat qilishi, ular o'rtasida ko'p sonli aloqa hamda bog'lanishlarni yuzaga keltirishi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: mustaqil fikrlash, ta'lim metodlari, suhbat metodi, o'quv jarayoni komponentlari.

В статье дается подробная информация об использовании эффективных методов самостоятельного мышления детей, а также о методах их обучения. Эти методы включают в себя сложный составляющий учебный процесс, который служит для повышения эффективности деятельности не только педагога, но также и ученика

Ключевые слова: самостоятельное мышление, учебные методы, метод речи, компоненты учебного процесса.

In this article is given detailed information about usage of effective methods of independent thinking abilities of children, including the teaching methods. It's known these methods include themselves complex components of educational process which serve to increase efficiency not only the teacher but also the student (or pupil at school).

Key words: independent thinking, teaching methods, speech methods, components of the educational process.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi ilmda bu yoshdagi bolalar ta'limi metodikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'llaniladigan metodlardan qisman farqlanadi. Unda ta'limning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlaridan foydalanish ustuvorlik qiladi.

Metod biror masalani hal etish, maqsadga erishish yo'li sifatida olam va odam sirlarini, tabiat va jamiyat hodisalarini bilish usulidir. Umumiy ma'noda bu tushuncha muayyan maqsadga erishish faoliyatini ma'lum tarzda tartibga solish yo'li sifatida talqin etiladi. O'qitish jarayonining qaysi bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, qo'llaniladigan metodlar ta'lim metodlari deb yuritiladi.

Ma'lumki, ta'lim metodlari – o'quv jarayonining murakkab tarkibiy komponenti bo'lib, pedagog va talaba, o'qituvchi va o'quvchi, tarbiyachi va



tarbiyalanuvchi faoliyatlarining barcha yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o'rtasida ko'p sonli aloqa hamda bog'lanishlarni yuzaga keltiradi. «Ta'lim metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi, algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir», deydi P.I.Podlaso'y. Hozirgi vaqtda o'nlab ta'lim metodlari ma'lum. Biroq bugun etakchi sanaluvchi didaktik g'oya, yagona va o'zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini ta'kidlab turibdi. O'qitish – favqulodda harakatchan dialektik jarayon. Ta'lim metodlari tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak».

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'qitish amaliyotida ta'lim metodlarining quyidagi turlaridan keng foydalaniladi:

ko'rgazmali metodlar – kuzatish, ko'rsatmali tasvirlar (rasmlar, diafilmlar, slaydlar, kompyuter dasturlari)ni namoyish etish, namuna ko'rsatish kabi metodlarni qamrab oladi;

og'zaki metodlar sirasiga quyidagilar kiradi: hikoya, suhbat, badiiy adabiyot o'qish, savollar bilan murojaat qilish, ko'rsatma berish va tushuntirish;

amaliy metodlar safidan – mashq, tajriba, modellashtirish kabi metodlar o'rin oladi.

Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etishi, qolganlari esa ayni holat uchun birmuncha samarasiz bo'lishi ham mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud bo'lmagani bois mashg'ulotlarda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin bo'ladi.

Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

didaktik maqsadga ko'ra; ta'lim mazmuniga ko'ra; bolalarning ko'nikmalarni egallash va rivojlanish darajasiga ko'ra; tarbiyachining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko'ra.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan har qanday mashg'ulotda tarbiyachi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlari majmuasi kichik guruhdan o'rta guruhga, undan yuqori va maktabga tayyorlov guruhlariga o'tish asnosida ham o'zgarib, murakkab xususiyat kasb eta borishi mumkin. Ushbu jarayonda ayrim metodlardan ko'proq foydalanilsa, ba'zilarini qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami, holati tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, inson miyasining 30 foizini vizual, 3 foizini audial ta'minlovchi neyronlar



tashkil etadi. Shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish retseptorlari yordamida amalga oshiriladi. Shu ma'noda, ta'limning ko'rgazmali metodlari o'rganilayotgan ob'ektni har tomonlama ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da, predmetning tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot olish nazarda tutilgan holda ulardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'qitish tizimida keng foydalaniladi. Tabiiy ob'ektlarni namoyish qilishda, odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan ob'ektlarning o'zi yoki rasmi yoxud chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa chizib ko'rsatish yoki tarbiyachining maxsus jihozlar yordamida namoyish etishi hisobiga amalga oshadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi. Biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan "Hayvonot bog'ida", turli o'simliklar bilan "Issiqxonada", sabzavotlar bilan "Dalada", mevalar bilan "Bog'da" nomli rangli suratlar orqali tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan ob'ektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Ko'rgazmali metod yordamida tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni mustaqil ravishda ob'ektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni aniqlash, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab etishga, bir so'z bilan aytganda, faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim bo'ladi. Namoyish samarasi ko'p jihatdan tarbiyachining bilish darajasiga, mohiyatan bolalarning yoshiga mos metodni to'g'ri tanlay olishiga va imkon qadar ularning diqqatini ob'ektning muhim jihatlariga yo'naltira olishiga bog'liqdir.

Ko'rgazmali metod maktabgacha ta'lim tashkilotlari nutq o'stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirishda ham katta samara beradi. Bolalardan mustaqil mulohaza talab qilingan ob'ektning bola ko'z oldida turishi uning tasavvurini tiniqlashtiradi, fikrlarini uyg'unlashtiradi. Bolaning butun e'tibori ob'ektning o'zidan ma'lumot qidirishga qaratiladi. Ko'rgazmali metodlardan bolalarning mustaqil mulohaza yurtishi maqsadida foydalanilganda asosiy urg'u tarbiyachining ta'lim ob'ekti bilan bog'liq savollarida, ya'ni ularning qanchalik mustaqil javob talab qilishiga bog'liq bo'ladi.



Bunday savollar zahirida tarbiyalanuvchini o‘ylab, mushohada qilib, haqiqatlarni mustaqil ravishda kashf etishga yo‘naltirishi nazarda tutiladi.

Ko‘rgazmali metodlardan bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda foydalanilganda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- ko‘rgazmali materiallarning bolalar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;

- tavsiya etilayotgan ob‘ektning guruhdagi barcha bolalar uchun qiziqarli bo‘lishi;

- namoyish etilayotgan ob‘ektlar barcha tarbiyalanuvchilarga yaxshi ko‘rinib turishi;

- namoyish ob‘ektga qo‘shimcha ravishda maket, jihoz yoki tajriba chizmasini chizib ko‘rsatish asnosida amalga oshirilishi;

- namoyish va illyustratsiya o‘quv materialining mazmuni bilan uyg‘un bo‘la olishi;

- namoyish ob‘ektining mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi o‘rinlariga alohida e‘tibor qaratilishi;

- mustaqil fikr talab qilinadigan savol yoki topshiriq manbasi (o‘rni) alohida ajratib ko‘rsatilishi;

- bu jarayonda bolalarning ushlab ko‘rish va alohida kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishi;

- bolalarga o‘ylab ko‘rish va mulohaza yuritib, munosabat bildirish uchun ma‘lum vaqt ajratilishi va h.k.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari amaliyotida katta samara beruvchi ko‘rgazmali metodlar sirasiga kirgan navbatdagi metod – kuzatish metodi hisoblanadi. U tevarak-atrofga, borliqdagi hodisalarga diqqat bilan qaray olish, ob‘ektdagi muhimlarni ko‘ra bilish, ularni farqlash, yuzaga keladigan o‘zgarishlarni belgilash, hodisaning kelib chiqish sabablarini aniqlash va xulosalar chiqarishni nazarda tutadi. Bu metod bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo‘naltirishda yaxshigina samara beradi. Hamma gap tarbiyachining undan mazkur maqsad yo‘lida oqilona foydalana bilishida. Bolani ilk yoshidan boshlab kuzatishga o‘rgatish, kuzatuvchanlik, kuzatilayotgan hodisaga diqqatini qarata olish, ko‘rganlari asosida fikr yuritish va fikrini o‘z so‘zlari bilan ifodalay olishga yo‘naltirish nafaqat mustaqil fikr egasi, balki ma‘naviy barkamol shaxsni shakllantirish maqsadiga ham muvofiqdir.



Bolalarning o'rganilayotgan ob'ektni bevosita kuzata olishlari, u haqda to'liq tasavvur shakllanishi va bilish jarayoni idrok etish, xotira, mustaqil fikrlash hamda xayolparastlikni rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish jarayonida xilma-xil fikriy faoliyat: berilgan savolga javob izlash, qiyoslash, taqqoslash singari ishlar tabiiy ravishda amalga osha boradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida kuzatishning quyidagi turlaridan foydalanish: qisqa muddatli kuzatish; uzoq muddatli kuzatish; takroriy kuzatish, qiyosiy kuzatish ishlarini amalga oshirish bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirishning eng samarali usullaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda qo'l keladigan metodlar sirasiga kiruvchi ta'limning og'zaki metodlaridan foydalanish (suhbat, hikoya, tushuntirish, badiiy adabiyot o'qish, savollar bilan murojaat qilish, ko'rsatma berish, ma'ruza) tarbiyalanuvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish, tarbiyachining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash asnosida amalga oshiriladi. Ta'limning og'zaki metodlarida bilimlarni uzatish vositasi sifatida pedagog nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda tarbiyachining tarbiyalanuvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, bolalar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

Og'zaki metodlar safidan o'rin olgan suhbat metodi tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda etakchi metodlardan hisoblanadi. Undan foydalanilganda bilimlarni o'zlashtirish jarayoni: bolalar e'tiboriga havola qilinayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'ektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylash va savollarga to'g'ri javob tayyorlashdan iborat. Bu metoddan foydalanilganda pedagogning rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni aniq va to'g'ri ifodalash, berilgan javoblarni kuzatish, ularni to'ldirish hamda umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari mashg'ulotlarini tashkil etishda samarali bo'lgan bo'lgan suhbat metodi bola tafakkuri mustaqilligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Metodika ilmida suhbatga bag'ishlangan anchagina ishlar mavjud. Jumladan, A.Tojievning "Adabiyot darslarida suhbat" qo'llanmasida umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darslari samaradorligini ta'minlashda suhbat metodining o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari nutq o'stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltiradigan suhbatlarni muvaffaqiyatli tashkil etishning shartlaridan biri –



bolalarning javoblariga e'tibor va chuqur hurmat bilan yondashishdir. Javob berayotgan bolaning fikrlari chalkashib ketishi yoki noaniq bo'lishi tabiiy. Pedagogning vazifasi uni butun guruhga tushunarli qilib berish emas. Bu har qanday ta'lim amaliyotida mutlaqo noto'g'ri hodisa. Bola aytmoqchi bo'lgan fikrini qiynalib, izlanib, munosib so'zlarni topib, o'zi ifodalashi kerak. Uni boshidan shunga o'rgatish lozim. Bolaning fikr aytishiga o'rinsiz ko'maklashish uni o'ylamaslikka o'rgatib qo'yadi. Agar yordam berish kerak bo'lsa, qo'shimcha savollar bilan uning o'z fikrini aniqroq ifodalashiga ko'maklashish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2009. – 368
2. Tojiev A. Adabiyot darslarida suhbat. –T.: O'qituvchi, 1997. –132 b
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'lamova M. Maktabgacha pedagogika. –T.: Ma'naviyat, 2013. – 160 b.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2017. – 386 b.
5. Podlaso'y I.P. Pedagogika. Novo'y kurs. V 2 kn. Kn. 1: Obhie osnovo'. Protsess obucheniya. –Moskva: Vldos, 2001. –576 s.



O'QUVCHI-YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH MASALALARI

I.A.OXUNOV,

ADU katta o'qituvchisi

Jamiyatdagi takomillashish jarayonida o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy ongning oshishi va rivojlanib borishi dolzarb masala. Chunki ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish har bir ziyoli insonning burchidir. Mazkur maqola bevosita ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish va har bir sohada sobitqadam bo'lishga yo'naltirish masalalariga qaratilgan.

Tayanch so'z va iboralar: o'quvchi-yoshlar, talabalar, o'quv jarayoni, ijtimoiy faollik, madaniyat, san'at, ma'naviyat.

Increasing the social activity of students in the process of improving society is relevant. Because the duty of every reasonable person is to lead him on the right path. This article directly addresses the development of their social activism and focus on leadership in all areas.

Key words: students, students, educational process, social activity, culture, art, spirituality.

Актуальным является повышение социальной активности учащихся в процессе совершенствования общества. Потому что долг каждого разумного человека - вести его по правильному пути. В этой статье напрямую рассматриваются вопросы развития их социальной активности и сосредоточения внимания на лидерстве во всех областях.

Ключевые слова: студенты, студенты, учебный процесс, социальная активность, культура, искусство, духовность.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda". Jamiyatdagi takomillashish jarayonida o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligining oshishi dolzarb masala. Chunki ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish har bir ziyoli insonning burchidir. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jihatlarini o'zida qamrab oladi. Jamiyatda yashovchi yoshlar ana shu sohalarining barchasida ijtimoiy faollik ko'rsatishi hayotiy zaruriyatdir.

"Ijtimoiy ong" keng qamrovli tushuncha bo'lib, u talaba yoshlarning ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagina emas, balki madaniyat, san'at, siyosat, huquq kabi sohalarida ham tafakkurning faol bo'lishini anglatadi. Demak, "ijtimoiy faollik"



o'zining tub mohiyatiga ko'ra, kishilar jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, sotsial va boshqa sohalaridagi faolligini ifodalaydi. Bozor munosabatlari va yangicha dunyoqarash shaxsning ijtimoiy faolligi strukturasiida ma'naviy-intellektual, ijtimoiy-siyosiy faollik etakchi va hal qiluvchi element ekanligini ko'rsatdi. "Ijtimoiy faollik" tushunchasining mohiyatini yoritish uchun "faollik" tushunchasining mazmuniga e'tibor berish lozim. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da faollik mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik, deb ta'riflanadi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda jamiyat taraqqiyotiga daxldor bo'lgan barcha tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar, tuzilma va sub'ektlar bab-baravar mas'ul hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarni birlashtirgan maxsus ijtimoiy harakatning bu jarayondagi o'rni o'zgacha. Bunda, eng muhimi, aholining yoshlardan iborat qatlamiga xos bo'lgan qiziqish va intilish, orzu-umid, his-tuyg'u, maqsad va manfaatlarining mavjudligidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning o'ziga xos qobiliyati ekan, guruh sharoitida tashkil etiladigan to'g'ri muloqot va samimiy muhit, bahs va tortishuvlarning omilkorona yo'lga qo'yilishi bunda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda, ularda hayotga, milliy-madaniy merosimizga nisbatan faol munosabatni shakllantirish, ularning ma'naviy sog'lom, ruhan tetik rivojlanishi uchun ta'lim jarayonida zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda esa insonning o'zligini anglashi muhim sanaladi. Chunki, inson o'zligini ro'yobga chiqarishi o'ziga bog'liq ekanligini qancha tez tushunib etsa, u hayotga shunchalik chuqurroq qaraydi, oldiga muhim maqsadlar qo'yadi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ruhiyatiga o'z-o'zini anglash tuyg'ularini singdirish orqali ijtimoiy etuklikka erishuvini ta'minlash muhimdir. Chunki, bu tuyg'u insonning ma'naviy shakllanishi jarayonida voyaga etadi.

Yoshlarda ijtimoiy faollik elementlarini milliy qadriyatlarimiz orqali rivojlantirishda xalqimizning ko'p yillik ana'nalari, madaniyati, urf-odatlarini, milliy bayramlari, boy qadimiy merosi o'zining alohida o'rni, ahamiyatiga ega. Yoshlarda milliy iftixor, milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlash asosida ularning ijtimoiy faolliklarini oshirishga alohida ahamiyat berish boshlandi. Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot, insofu diyonat, muruvvat, mehr-oqibat – bular barchasi ma'rifatli, ma'naviyatli insonlarning asosiy fazilatlarini sanaladi. Ana shu fazilatlarini yoshlarimizda shakllantirish bugungi kunning muhim vazifasidir. Hozirgi globallashuv jarayonida intizomli, mas'uliyatli, sabr-bardoshli, diyonatli, vijdonli, iymonli, e'tiqodli, bag'rikeng, insonparvar, ijtimoiy faol va shu kabi oliyjanob fazilatlar egasi bo'lgan yoshlarga yashash uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo'la oladilar. Ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayoni shaxsning o'z-o'zini anglashi, qadr-qimmatini qay



darajada e'zozlashi, jamiyat uchun xizmat qila olish imkoniyati va harakatlariga ham bevosita bog'liq. Bularning barchasi shaxsning ijtimoiy faolligi bilan bog'liq.

Yoshlarning ijtimoiy faollashuvi, deganda ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo'lganida, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga tashqaridan bo'ladigan bosimsiz ko'maklashishga intilishlari tushuniladi.

Mas'uliyat ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning etukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsad va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq-yaqinga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson ma'naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsad doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'mashishida ma'lum ma'noda ideal ham rol o'ynaydi.

Inson shaxsi taraqqiyoti bo'yicha jahon ilmida to'plangan nazariy qarashlar hamda O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, *birinchidan*, inson shaxsining ijtimoiy faolligi, eng avvalo, jamoada, ma'lum faoliyat turlarida shakllanadi.

Ikkinchidan, talabalik davri ijtimoiy faollik hamda turli axloq normalarini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar davri bo'lgani sababli, yoshlar orasida ustuvor faoliyat hisoblangan ta'lim jarayoni muhim omil hisoblanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar ijtimoiy borliq mazmunini individual borliq bilan bog'lovchi ko'priq vazifasini o'taydi.

Faollikning muayyan darajada ifodalanishi Vatan va uning tarixi hamda madaniyatiga bo'lgan qiziqish, ular bilan g'ururlanish, milliy qadriyat, milliy madaniyat va an'analarga ehtirom ko'rsata olish, madaniy va moddiy boyliklarga bo'lgan munosabat, shu Vatanda istiqomat qilayotganligini sharaf bilan namoyon eta olishi, yashayotgan hudud va uning tabiatini saqlashda bevosita ishtiroki bilan belgilanadi. Bizningcha, bu tarkiblarning qatorida burchni his etish, millat va Vatanga mansublik, vatanparvar-sodiqlik, hudud va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy hayotida qatnashish istagi,

o'zining fuqarolik haq-huquqini anglash hamda ijtimoiy-madaniy faoliyat turi bilan shug'ullanish, fidoyilik ko'rsata olishga tayyor turish kabilar faollik fenomenining muhim tarkiblari hisoblanadi. Yoshlarni kasbga va mustaqil hayotga tayyorlash amaliyotida mazkur komponentlarni shakllantirish masalasiga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun, mamlakatimiz ta'lim muassasalarida "Fidoyi yoshlar" to'garagi tashkil etib, mahallalarda, ta'lim muassasalarida fidoyi yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazishni yo'lga qo'yish lozim.

Faollikning darajasi, ijtimoiy munosabatlar kontekstida individual tafovutni



tavsiflab, yoshlarni jarayonlarga nisbatan munosabatini ifoda etib, ularning kamolotiga ta'sir ko'rsatadi. Agarda, faollik samarali bo'lmasa yoki ijtimoiy me'yorlarga mos tushmasa, u holda faollik aniq xulqda ifodalanagan muammo sifatida baholanadi. Faollik sub'ekt ichki kechinmalarining ruhiyati asosida shakllanib, emotsional-irodaviy darajaga o'tadi, sub'ektiv dunyo miqyosidan borliqda, ya'ni aniq predmetlarni yaratish (ishlab chiqarish) va jarayonlarni vujudga keltirishda ifodalanadi. Bu, o'z navbatida, individual resurslardan foydalanishni, ijtimoiy munosabatlar tizimida tashqi qo'zg'atuvchi tarzida ifodalanadi.

Agarda faol sub'ekt qabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga amal qilgan holda, faollikni ifoda etsa, jamoatchilik tomonidan tezda e'tirof etiladi. SHu sababli, yoshlar bilan ma'rifiy tadbirlar o'tkazishni rejalashtirishda, ular faolligining qaysi turini oshirish lozimligini inobatga olish tavsiya etiladi. Inobatga olish esa chora-tadbirlarning mazmunini maqsadli boyitish uchun muhim hisoblanadi. Faollikning asosiy shakllari: jismoniy faollik; ijtimoiy faollik; siyosiy faollik; madaniy faollik; ijodiy faollik; dialogik faollik; kommunikativ faollik; intellektual faollik; idrok faolligi; ongli faollik; tafakkur faolligi; kognitiv faollik; ichki faollik va boshqalar.

Shu tariqa, faollik iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarning vujudga kelishi hamda kechishini ta'minlashda yoshlarning individual ishtirok etishini ta'minlash nazarda tutiladi. Bu holat o'z navbatida yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun mo'ljallangan adabiyotlarni, zamonaviy, ya'ni axborot yoki tayyor bilim beradigan manba emas, balki axborotning bilim shakliga keltirishni o'rgatuvchi manbalarini yaratishni; faol yoshlarning ijtimoiy-psixologik portretini tayyorlash (buning uchun yoshlarning faollik darajasini baholash psixologik testlari ishlab chiqishni); yoshlar faolligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi ekzo va endo omillarni belgilab olishni (belgilangan omillar yoshlar faoliyatini boshqarishda amaliy ahamiyat kasb etadi) taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини янги bosqichga олиб чиқишга қаратилган chora-tadbirlar tўғрисида”ги қарори лойиҳаси // <https://regulation.gov.uz/ozFdocument/4824>.

2. Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Соц.ф.д...диссертация автореферати. – Т., 2005. – 56 б.–33-бет.

3. Великие мысли великих людей // Из цикла «Мудрость тысячелетий». Сост. А.П. Кондрашов, И.И. Комарова. – М.: РИПОЛ классик, 2007. – 1216 с.



НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Д. ТОРЕЖАНОВА,

учитель высшей категории
общеобразовательной спец.школы №37г.Нукуса.

Статья посвящена вопросу нравственного воспитания на уроках литературы. Одной из важнейших целей литературного образования является формирование нравственной, гармонично развитой личности. Нравственное воспитание является органичной составляющей педагогической деятельности, направленной на усвоение учащимися системы национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: нравственное воспитание, литература, нравственные ценности.

The article, is devoted to the issue of moral education in literature lessons. Literature plays an important role in the formation of moral culture, among schoolchildren.

Key words: moral education, literature, moral values.

Maqola adabiyot darslarida axloqiy tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Adabiyot o'quvchilarning axloqiy tarbiyasining muhim vositasidir. Axloqiy tarbiyaning maqsadi o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish.

Tayanch s'ozlar: axloqiy tarbiya, adabiyot darslari, axloqiy madaniyat.

Проблема нравственного воспитания подрастающего поколения была актуальной всегда, а в условиях рыночной экономики и утверждения рыночных отношений, в основе которых лежат такие «рыночные ценности» как конкуренция, соперничество, жаждак наживе, эта проблема приобретает особую актуальность.

Понятие «нравственное воспитание» включает в себя две составляющие: «воспитание и нравственность».

Понятие «воспитание» - одно из ведущих в педагогике. Оно употребляется в широком и узком смысле.

Воспитание в широком смысле рассматривается как общественное явление, как воздействие общества на личность. В данном случае воспитание практически отождествляется с социализацией. Воспитание в узком смысле рассматривается как специально организованная деятельность педагогов и воспитанников по реализации целей образования в условиях педагогического процесса. Деятельность педагогов в этом случае называется воспитательной работой.



Анализ психолого-педагогической литературы позволил нам установить многообразие подходов к определению понятия «воспитание».

Выдающийся педагог XX столетия В.А.Сухомлинский определял воспитание, как «...постепенное обогащение ребёнка знаниями, умениями, опытом, это развитие ума и формирование отношения к добру и злу, подготовка к борьбе против всего, что идёт в разрез с принятыми в обществе моральными устоями.

Известный российский автор учебников по педагогике И.П.Подласый определяет воспитание как «специально организованное, управляемое и контролируемое взаимодействие воспитателей и воспитанников, конечной своей целью имеющее формирование личности, нужной и полезной обществу».

В словаре педагогических терминов и кратком энциклопедическом словаре даются следующие определения этому понятию: «воспитание – планомерное и целенаправленное воздействие на сознание и поведение с целью формирования определённых установок, принципов, ценностных ориентиров.

«Воспитание - целенаправленный процесс воздействия на человека, способствующий его формированию как личности, формированию у него комплекса или отдельных видов культуры (физической, духовной, эстетической и др.). Воспитание тесно связано с обучением, так как многие его задачи достигаются именно в процессе обучения. Вместе с тем воспитательное воздействие на человека оказывают многие факторы окружающей среды, включающие социальные условия, образ жизни, литературу и искусство, средства массовой информации и другие». [1, с.57]

Перечисленные выше подходы к определению понятия «воспитание» весьма разнообразны. Воспитание рассматривается как общественное явление, деятельность, процесс, ценность, система, воздействие, взаимодействие и т.д. Бесспорно одно, что с древнейших времён воспитание является важнейшей функцией общества по передаче общественно-исторического опыта от одного поколения к другому.

Что же касается понятия «нравственность», то оно часто использовалось как синоним понятия «мораль», что в принципе неверно. Как отмечает Харламов И.Ф.: «Под моралью в этике обычно понимают систему выработанных в обществе норм, правил и требований, которые предъявляются к личности в различных сферах жизни и деятельности. Нравственность же человека трактуется как совокупность его морального сознания, навыков и привычек, связанных с соблюдением этих норм, правил и требований. Указанные трактовки весьма



важны для педагогики. Формирование нравственности, или нравственной воспитанности, есть не что иное, как перевод моральных норм, правил и требований в знаниях, навыки и привычки поведения личности и их неуклонное соблюдение». Разница между моралью и нравственностью состоит в том, что мораль – это совокупность норм и требований, принятых в обществе и обуславливающих поведение индивида в данном обществе, а нравственность это свойство человека, базирующееся на знаниях норм морали, которое проявляется в его отношении к себе, к окружающей действительности в образовательном процессе и в других аспектах жизнедеятельности. Мораль и нравственность являются предметом изучения науки этики. В свою очередь, этика является методологической основой нравственного воспитания.

По мнению И.Ф.Харламова, процесс нравственного воспитания должен быть направлен на то, чтобы вырабатывать, развивать и совершенствовать нравственные качества учащихся. В частности, речь должна идти о формировании таких качеств, как устойчивость научного мировоззрения, патриотизм и культура межнациональных отношений, трудолюбие, бережное отношение к материальным ценностям общества и личному имуществу, коллективизм, сознательная дисциплина и культура поведения.

Следовательно, нравственное воспитание – это целенаправленное взаимодействие педагога с учащимися, в ходе которого осуществляется воздействие на сознание, чувства, поведение учащихся и формируются их нравственные качества. Целью нравственного воспитания является формирование нравственной культуры личности. Основными критериями сформированности нравственной культуры личности являются:

- развитость эмоциональной сферы (нравственных чувств, эмпатии);
- развитость нравственных понятий, суждений, ценностей, оценок, этических норм, способность к нравственному выбору;
- сформированность нравственных качеств, культуры поведения.

Одним из важных средств нравственного воспитания является художественная литература, которая расширяет жизненный опыт учащихся, создаёт для них духовно-эмоциональную среду, в которой органическая слитность эстетических и нравственных переживаний обогащает и духовно развивает личность учащегося. Важную роль в нравственном развитии учащихся играют уроки литературы. Любая тема в литературе может рассматриваться с точки зрения нравственного понимания. Например, в сказках добро всегда побеждает зло, а народные былины воспитывают в учениках чувство патриотизма. Уроки литературы учат жизни в широком понимании



слова, формируют опыт, развивают чувства. Если учащийся научится проникать в эмоциональный мир героев, выявлять авторское отношение к ним, а затем вырабатывать собственные оценки персонажей, то это будет способствовать развитию читательских навыков, глубокому постижению художественного произведения, повышению уровня нравственности учащихся, формированию их нравственных идеалов. Литература – это особый вид искусства, который отображает и подчёркивает суть всех эпох, учит нравственности, делает читателей морально устойчивыми и повышает их культурный уровень. Предметом каждого изученного произведения является человек, его жизнь и поведение в разных ситуациях. Как бы далеки ни были события о которых нам рассказывают Пушкин, Лермонтов, Гоголь, Достоевский, Тургенев, Толстой и другие писатели и поэты, нравственные проблемы, поднятые ими в произведениях звучат злободневно и в наше время.

С целью формирования нравственной культуры, навыков и умений нравственного поведения, предлагается использование интерактивных и инновационных методов преподавания. Можно выделить два блока методов преподавания:

– Первый блок методов это: мозговой штурм, кластер, синквейн, рыбий скелет, работа в малых группах, дискуссия, ролевые игры.

– Второй блок методов – это использование новых информационных технологий и интернет-ресурсов в учебном процессе (демонстрационные материалы, справочные ресурсы, образовательные сайты).

Таким образом, используемые методы и средства обучения позволяют создать условия для формирования нравственной культуры учащихся.

В заключении, нам хотелось бы привести высказывание 26 президента США, лауреата Нобелевской премии мира Теодора Рузвельта: «Воспитав человека интеллектуально, и не воспитав его нравственно, – значит вырастить угрозу для общества».

Литература:

1. Краткий энциклопедический словарь. М., 2003 г., 144 с.
2. Подласый И.П. Педагогика: в двух книгах. М.: Владас, 2001, 256 с.
3. Сивашинская Е.Ф. Педагогика (эл. ресурс) Брест, 2009 г.
4. Словарь педагогических терминов. М.: Флинта, 2000 г.
5. Сухомлинский В.А. Избранные педагогические сочинения. М., 1980 г.
6. Харламов И.Ф. Педагогика. М.: Гардарики, 1999 г., 250 с.



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA FAOL TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

B.A.AKBAROV,

*O'zPFITI katta ilmiy xodimi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda faol ta'lim metodlarining ahamiyati, bu jarayonda qo'llaniladigan o'yin metodlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, klassifikatsiyasi va mazmuni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, faol ta'lim metodlari, o'yin metodlari, kartochkali o'yin, axborot-qidiruv tizimli o'yin, faollashtiruvchi so'rovnomalalar, blankali-kartochkali kasbga yo'naltirish o'yinlari.*

В статье рассматривается значение активных методов обучения в профессиональной ориентации студентов, используемые в этом процессе игровые методы, их особенности, классификация и содержание.

Ключевые слова: *профориентация, активные методы обучения, игровые методы, карточные игры, информационно-поисковые системные игры, активизирующие опросы, профориентационные игры с пустыми карточками.*

The article discusses the importance of active learning methods in the orientation of students to the profession, the methods of play used in this process, their specific features, classification and content.

Keywords: *Career guidance, active learning methods, game methods, card games, information-search system games, activating surveys, blank-card career guidance games.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda kasbga yo'naltirish amaliyotini tadqiq qilish ishlari sezilarli darajada rivojlandi va buning natijasida an'anaviy metod va shakllarning unchalik samara bermasligi ko'rinib qoldi. Bu holatda doimiy izlanish, yangi ish uslublarini izlab topish talab qilinadi va birinchi navbatda kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislarning ish uslublarini, faoliyat mazmunini o'zgartirish lozim bo'ladi. O'quvchilarning kasb tanlashdagi passiv, sustkashlik, ikkilanishlarini engib o'tishlarida yordam ko'rsatish uchun kasbga yo'naltirishning faol metodlarini qo'llash talab qilinadi.

Kasbga tanlashni faollashtiruvchi metodlarning asosiy maqsadi – o'quvchilarga o'zining kelajakdagi taqdirini belgilovchi kasbni tanlashda faol pozitsiyani egallashga yordam berish.

Faollashtiruvchi metodlar o'quvchilarni nafaqat kasblarga oid axborotlar bilan ta'minlaydi, balki ularda kasblar olamiga qiziqishni uyg'otadi va o'zini mehnat jarayonida namoyon qilishga undaydi.



Kasbga yo‘naltirishning bir nechta turdagi faollashtiruvchi metodlari mavjud bo‘lib, ularning orasida kasbga yo‘naltiruvchi o‘yinlar alohida o‘rin tutadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarni kasb tanlash jarayonining passiv ob‘ekti darajasidan jarayonning faol sub‘ektiga aylantiradi. O‘yinlarda kasbga yo‘naltiruvchi materiallarni ko‘rgazmali, predmetli shakllarda taqdim qilish mumkin. Bu o‘z navbatida o‘quvchilar tomonidan mavzuni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga ta’sir ko‘rsatadi. Bularga:

- sinf bilan o‘ynaladigan kasbga yo‘naltiruvchi o‘yinlar;
- kasbga yo‘naltiruvchi o‘yin mashqlar;
- kartochkali axborot qidiruv tizimlari;
- stol usti o‘yinlari;
- blankali o‘yinlar;
- faollashtiruvchi so‘rovnomalar kiradi.

Sinf bilan o‘ynaladigan kasbga yo‘naltiruvchi o‘yinlar o‘quvchilarni faollashtirish va tashxis qilish imkoniyati bilan xarakterlanadi. Bu o‘yinlar real maktab sharoitida o‘tkazishga mo‘ljallangan:

- o‘yin vaqti dars vaqti bilan chegaralangan;
- butun sinf bilan ishlanadi;
- bitta pedagog butun sinf bilan ishlaydi;
- ish jarayonida yuqori darajadagi dinamika ko‘zda tutiladi.

Butun sinf bilan o‘tkaziladigan kasbga yo‘naltiruvchi o‘yinlar yuqori sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallanadi. SHuningdek, bunday o‘yinlar tashxis, diskussiya, individual maslahat va ma’ruza shaklidagi ishlarga qo‘shimcha sifatida ham qo‘llanilishi mumkin.

Bu o‘yinlarni tashkil qilishning muhim sharti – yuqori dinamika bo‘lib, bu hol darsda o‘quvchilarning tartib-intizomini saqlash bilan bog‘liq muammolarni ham hal qilish imkoniyatini beradi.

Sinf bilan o‘tkaziladigan o‘yin metodikalariga qo‘yidagilar kiradi:

- ma’naviy-ahloqiy o‘yinlar;
- sinash-tanishuv o‘yinlar;
- mas’uliyatli qaror qabul qilish va keyingi harakatlarni belgilashga o‘rgatuvchi o‘yinlar.

Kasbga yo‘naltiruvchi o‘yin mashqlar o‘rta (8-15 nafar o‘quvchi) yoki kichik (6-8 nafar o‘quvchi) guruhlar bilan ishlashga mo‘ljallangan.

Aksariyat o‘yinlar uning ishtirokchilari doira (aylana) shaklida o‘tirgan holda



o'tkaziladi. Bunday o'yinlarda kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis o'z fikrini o'tkazishi man qilinadi. U turli yo'llar bilan ishtirokchilarni qo'llab turishi, o'zaro hamkorlikni tashkil qilishi, barcha ishtirokchilarga o'zini namoyon qilishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishi lozim.

3-6 kishi bilan o'tkaziladigan vaziyatli o'yinlar ham yaxshi samara beradi. Ularda kasbiy munosabatlardagi muammoli vaziyatlarning elementlari modellashtiriladi. Masalan, sotuvchining xaridor bilan, DAN xodimining qoidabuzar bilan, tish shifokorining bemor bilan, ekskursovodning horijiy mehmon bilan (va h.k.) muloqotidagi muammoli vaziyatlar shular jumlasidan.

Kartochkali o'yin texnologiyalarining afzallik tomoni – predmetlilik. Kartochkalardan modellashtirilayotgan ob'ektlar obrazini tezkorlik bilan tuzish imkoniyati mavjud. Bunday yondoshuv o'quvchining kelajakdagi hayotiy va kasbiy taqdirini modellashtirishda yaxshi samara beradi.

Kartochkali kasbiy maslahat metodikalarini ikkita asosiy guruhga: axborot-qidiruv tizimli va kartochkali o'yin metodikalariga ajratish mumkin.

Axborot-qidiruv tizimli o'yin metodikalari. O'quvchilar stoldagi maxsus kartochkalardan o'zlarini qiziqtirgan kasb-hunar mutaxassisining obrazini tuzadilar;

Kartochkali o'yin metodikalari. Bunday o'yinlar real hayotiy murakkab vaziyatlarni modellashtirishdan iborat bo'lib, o'quvchi o'yin qoidalariga rioya qilgan holda qiyinchiliklarni engib o'tishga o'rganib boradi va natijada o'zining hayotiy va kasbiy maqsadlariga erishadi.

Birinci guruh o'yin metodikalarida o'quvchi kasb tanlashda mavjud muammolar obrazini tuzadi va ularni echish yo'llarini ishlab chiqadi. SHuningdek, bu o'yinda o'zida qiziqish uyg'otgan kasbiy obrazlarni ham tuzishi mumkin.

Test blankalaridan farqli tarzda kartochkali texnologiyalarning afzalliklari – ularda amalga oshirilgan tanlovni tezkorlik bilan korreksiyalash imkoni mavjud. Kasbiy maslahatchi maxsus chalg'ituvchi savollardan foydalanib o'quvchini muammoli vaziyatlar qarshisiga qo'yadi. Yuqoridagi korreksiyalash imkoni mavjudligi bu o'yinlarni asosiy sharti bo'lib, uning natijasida o'quvchining ongli, mustaqil qaror qabul qilish va harakat qilish malakalari rivojlanib boradi.

Kartochkali o'yinlarda inson hayoti va kasbiy faoliyatining turli bosqichlarini modellashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu metodikaning muhim faollashtiruvchi usuli – bu kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis tomonidan ishtirokchilarning kartochkalarga yozgan javoblari yuzasidan atayin, maxsus tashkil qilgan bahs-munozarasi va uning echimi uchun ma'lum rag'bat yoki tanbeh berilishi.



Modellashtirilayotgan hayotiy vaziyatning mayda, ikir-chikirlar muhokamasiga berilmay, yaxlit qamrab olinishi kartochkali kasbga yo'naltirish o'yinlarining asosiy xususiyatidir.

Kartochkali stol usti o'yinlari – o'smirning bu yoshda stol usti o'yinlariga bo'lgan qiziqishini hisobga olgan holda, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis tomonidan darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladi.

Kartochkali stol usti o'yinlari yuqorida tasvirlangan kartochkali metodikalardan birmuncha farq qiladi. Unda o'quvchiga nisbatan shaxs sifatida munosabat o'rnatiladi va kasbiy o'zini anglashdagi muammolar oddiy va sodda shakllarda modellashtiriladi. Bunday metodikalar uyda, oila sharoitida o'quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan ham qo'llanilishi mumkin.

Blankali-kartochkali kasbga yo'naltirish o'yinlari. Kartochkalar ishtirokchilar tomonidan (har biri 8-12 tagacha kartochka) tayyorlanadi. O'yin natijalari esa maxsus blankalarda o'z aksini topadi. Bu – jarayonning muhim elementi. O'yinning o'zidan ko'ra unga tayyorgarlik jarayoni katta ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quvchi o'z kartochkalar to'plamini tayyorlash davomida o'ylanadi, izlanadi va ekspert sifatida faoliyat yuritadi.

Yuqoridagi metodikalar natijasiga asosan o'quvchilardagi shaxsiy sifatlarni ma'lum bir kasbga mosligi haqida xulosa qilish mumkin. Biroq, bu metodikalarni psixodagnostik metodikalarga kiritish noto'g'ri. Mazkur o'yinlarning maqsadi – ishtirokchilarni u yoki bu kasbiy faoliyat sohasi haqida fikr yuritishga yo'naltirish.

Faollashtiruvchi so'rovnomalar. Maqsad – o'quvchi haqida ma'lumot olishdan ko'ra ko'proq uni o'zini shaxs sifatida anglash (ruhiy olami, ichki kechinmalari, kasb tanlashdagi muammolari va echim yo'llari) kelajdagi hayoti, kasbiy faoliyati ustida fikr yuritishga ishtiyoq uyg'otish.

Biz, bu yo'nalishda mavjud an'anaviy psixodagnostik vosita va metodlarning zarurligi va to'g'riligini inkor qilish fikridan yiroqmiz. Mutaxassisdan maxsus qobiliyatlarni talab qiluvchi kasblarni tanlashda, albatta asoslangan va ishonchli mezonlarga ega bo'lgan xolis psixodagnostika, qo'shimcha psixofiziologik va tibbiy diagnostika zarur. Biroq ommaviy, ko'pchilik uchun kerakli kasblarda "tanlash" yoki "saralash" emas, balki o'smirga kelajakdagi faoliyatidan shaxsiy mazmun topishiga yordam berish zarur.

Faollashtiruvchi so'rovnomalar – bu o'ziga xos testli o'yinlar. Ular haqiqiy psixodagnostika emas, balki shunchaki o'yin bo'lib, buni o'quvchilar ham psixolog-kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis ham birdek yodda tutishi shart.



Butun sinf uchun blankali o'yinlar. Bu o'yinlarni tashkil qilishning muxim sharti – unda psixolog – kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis har bir bola bilan alohida va butun sinf bilan bir vaqtda o'yin tashkil qilishi. Har bir o'quvchiga blankalar tarqatiladi. Unga o'quvchi o'z yurishlari va natijalarini qayd qilib boradi.

Mazkur metodikalar ishbilarmon, huquqshunos va boshqa shu kabi bugungi kunda nufuzli sanalgan kasblarning ma'naviy – ahloqiy jihatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Tavsiya etilayotgan metodikalarning mazmuni va ularni qo'llashdan maqsad – yuqori sinf o'quvchilari bilan ishlashda ular uchun erkin, do'stona va qulay sharoit va o'zgacha muhitni yaratish, shuningdek, kasb tanlash, mehnat faoliyati bilan bog'liq elementlarni modellashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asamova R.B. Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatleri va kasbiy tashxis: Dis. ... psixologiya.fan.nom. – T.: TDPU, 2001. – 188 b.
2. Klimov E. A. Kak vybirat professiyu Kn. dlya uchashixsya st.klassov.sredney shkolы. – M.: Prosveteniye, 1990.
3. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. – T.: O'zROO'MTV, 2007.
4. Kuchukbaev F.M., Akbarov B.A., Turg'unov A.A. O'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirish jarayonlarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar. – T.: O'zPFITI, 2016. – 144 b.



MUSTAQIL TA'LIM - BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

M.S.MAXMUDOVA,
Qo'qon DPI o'qituvchisi

Maqola doirasida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta'lim davrining tutgan o'rni xususida fikr yuritilgan. Mustaqil ta'lim davrida talabalarning kasbga oid faoliyatlari natijalarini sifat jihatdan baholash mezonlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Logoped, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta'lim, korreksion bilim, kasb etikasi

В рамках статьи было высказано представление о роли периода самостоятельного обучения в развитии профессиональной компетентности будущего логопеда. В период самостоятельного обучения освещаются критерии качественной оценки результатов профессиональной деятельности студентов

Ключевые слова: логопед, профессиональная компетенция, независимое образование, коррекционные знания, профессиональная этика.

The article provides an idea of the role of the period of independent training in the development of professional competence of the future speech therapist. During the period of independent study, the criteria for qualitative assessment of the results of professional activity of students are highlighted.

Key words: Logoped, professional competence, Independent Education, Correctional knowledge, professional ethics

O'zbekistonda uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan oliy ta'lim mazmunini xorijiy ilg'or tendensiyalar asosida takomillashtirish, pedagogik jarayonga axborot kommunikatsion texnologiyalarni intensiv joriy etish, ta'lim oluvchilarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning samarali usullarini tatbiq etish masalasi milliy pedagogikada dolzarb mavzuga aylangan. Xususan, turli sohalar bo'yicha oliy ta'limning o'quv rejalarida modullarga tegishli soatlar tarkibida mustaqil ta'lim soatlari alohida ajratib berilgan bo'lib, aynan shu ta'lim jarayonida talabalarning faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish muammosiga ustuvorlik berilmoqda.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim mazmunining zamon talablariga to'liq mos kelmaqligi ham kadrlarning mehnat bozorida maqsadli faoliyat yuritish imkonliklariga sabab bo'lmoqda. Bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda oliy ta'limni modernizatsiya qilish bilan bog'liq innovatsion yondashuvlarning shaxsiga ehtiyojga yo'nalganlik bilan bir qatorda ko'rib chiqish lozim. Shu sababli logopedlarni tayyorlash nafaqat kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va layoqatlarni shakllantirish sifatida, balki mutaxassisning



professionalizatsiyalashuvi va ijtimoiylashuvi nuqtai nazaridan ham qarash lozim.

Bo'lajak logopedlarda kasbiy faoliyat bilan bog'liq hamda ijtimoiy muhitda qulay harakatlanish imkonini beruvchi ko'nikma va malakalarni ijtimoiy, kommunikativ, informasion kompetensiyalar tarzida mujassamlashtirgan holda hamda kasbiy va shaxsiy cifatlar kabi turkumlarga ajratgan holda rivojlantirish zarurati mavjudligi amaliyotdagi holatlarni kuzatganda aniqlandi. Bundan tashqari har qanday kompetensiya haqida gapirilganda, eng avvalo kasbiy bilimdonlikni unutmashlik lozim. Ya'ni talabalarning mustaqil ta'lim davrida an'anaviy yondashuvni yoki zamonaviy texnologiyalarni qaysi biridan foydalanilmasin, eng muhim talab bu bo'lajak mutaxassislariga qo'yiluvchi malaka talablarida ko'zda tutilgan kasbga irod va modullar mazmuniga mos bilimlarni talabalarga yetkazishning zarurligini OTM o'qituvchilari anglashlari maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ta'limda pedagogik jarayonlarni tashkil etish, sifat va samaradorligini ta'minlashda sub'ektlar(o'qituvchi va talaba) faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish(darsda va darsdan keyin), nazorat qilish(davriy olib boriladigan ish turlari: suxbat, konsultatsiya, "Master klass"lar, "Ustoz-shogird" soatlari...) va ob'ektiv baholash(o'z-o'zini baholash, boshqa talabalar faoliyati va ularning natijalarini namoyish qilish orqali taqqoslash...), rag'batlantirish(ma'naviy, motivatsion, stimullashtirish) asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Mustaqil ta'lim davrida talabalarning kasbga oid faoliyatlari natijalarini sifat jihatdan baholash mezonlaridan biri ularning logopedik bilimi va korreksion ishlarni tashkil etish malakasiga qarab belgilanadi. Shuning uchun talabalar mustaqil ta'lim davrida o'zining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati orqali pedagogik, metodik mahoratini rivojlantirishi, o'z bilimlarini muntazam oshirib borishlari zarurdir.

Biz talabalarning bu jarayondagi faoliyatlarini samarali tashkil etishlariga erishishni ta'minlaydigan OTM o'qituvchilari e'tiborlarini qaratishlari lozim bo'lgan quyidagi tavsiyalarni asosladik:

- mustaqil ta'lim davrida talabalar faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, ilmiy-amaliy jihatdan asoslanganligi, bundan tashqari, eng muhimi, ushbu ta'limning mazmunini to'g'ri tanlash, o'quv-topshiriqlarning murakkablik darajalarini aniqlash mexanizmlarini muntazam o'rganish orqali tegishli tuzatishlar kiritib borish;

- mustaqil ta'lim sifatini baholash, tashkil etilish bosqichlari va ularning taraqqiy etib borishini ta'minlash, strategik va taktik yo'llarni tanlash hamda belgilash;

- mustaqil ta'limda talabalarni o'qitish va tarbiyalashning muqobil usullarini



ishlab chiqish, ularning kasbiy dunyoqarashini rivojlantirishga, turli jamoa(amaliyot o'taydigan, ko'chma mashg'ulot (amaliy mashg'ulotning boshqa muassasada o'tilishi)olib boriladigan muassasalarda)larning barcha a'zolari orasida hurmat, ishonch, "Ustoz-shogird" lik, do'stlik va o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga o'rgatuvchi texnologiyalarni tatbiq etish.

Oliy ta'limda mustaqil ta'limning muhim jihati talabalarda ijodkorlikni, kasbiy malakalarni, axborot bilan ishlash motivatsiyasini rivojlantirishga hamda bo'lajak mutaxassislarning kelajak faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etish yo'llarini tanlashga o'rgatishidir.

Bo'lajak logopedlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda mustaqil ta'limga oid o'quv jarayonini tayyorlashda loyiha texnologiyasini qo'llash ham o'z ijobiy ta'sirini beradi. Talabalarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantirish, o'rganilayotgan sohaga oid o'quv materiallari bo'yicha kasbiy bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish, tanqidiy fikrlash, faolligini oshirish, shaxsiy, guruh shaklidagi mustaqil ishlarni tashkil etish, bevosita va bilvosita interfaollik, refleksiya uchun metakognitiv tajriba hamda qobiliyatni shakllantirish, har qanday ta'lim yo'nalishi doirasida mavzu y o'naltirilgan ta'lim o'zgaruvchanligini ta'minlash, nazariy va amaliy tavsifdagi fanlararo vazifalarni hal etish; retseptiv, produktiv faoliyatni rivojlantirish, mustaqil ta'lim jarayonida ijobiy munosabatni shakllantirish, o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasining umumiy ko'nikma va malakalarini egallash imkonini beradi.

Pedagogik adabiyotlarda mustaqil ish, mustaqil ta'lim kabi tushunchalar alohida mazmun va amaliy yo'nalgan kontekstlarda berilgan. Aksariyat oliy ta'limga oid izlanishlarda talabalarining mustaqil ishlari faollashtirishga yo'naltirilganligidadir.

Mustaqil ta'limning mohiyatan mustaqil mutoalaa sifatida talqin etilishi hamda uning shaxs shakllanishiga ijtimoiy ta'sir etishi sharq mutaffakkirlarining qarashlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, Ibn Sino bolalarning aqliy salohiyatini rivojlantirish g'oyasini ko'rib chiqib, bilim va rivojlanish hech bir insonga berilishi yoki ma'lum qilinishi mumkin emas. Har kim bunga o'z faoliyati orqali erishishi mumkin. Inson o'z mustaqil faoliyati orqali erishmagan narsa uniki emas» - deb ta'kidlagan.

Shu bois tadqiqot davomida talabalarga qator ko'rsatmalar berildi. Jumladan, axborotlar bilan ishlashning samarali yo'llari tavsiya etildi. Ma'lumki manbalardagi ma'lumotlarni o'rganishda muhim talab axborotlarni yozish bo'lib hisoblandi. Axborot qog'ozga yoki elektron tarzda yozilgan paytdan boshlab, manbaga aylanadi. Ma'lumotni birlamchi qayd qilish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:



kitobning ostiga chiziqlar, chetlaridagi qaydlar. Biz ham talabalarga shartli belgilar bilan ishlashni o'rgatdik. Shartli belgilarni biz quyidagi belgilar tizimi sifatida foydalanishga tavsiya etdik: ! - juda muhim; ? - shubha tug'diradi, aniq emas; V - asosiy, e'tibor bering; = - xulosa, natija; W - yozish kerak.

! juda muhim

? shubha tug'diradi, aniq emas

V asosiy, e'tibor bering

= xulosa, natija

W yozish kerak

Axborotlar bilan ishlashda o'qilgan narsaning sxematik yozuvidan foydalanish juda qulay usul sifatida talabalar tomonidan ijobiy qabul qilindi. Eng keng tarqalgan sxemalardan "Fikrlar daraxti", va "Idrok xaritasi", "Shajaraviy daraxt". Bu sxemalarda murakkabroq tushunchaning asosiy tarkibiy qismlari, kalit so'zlar va boshqalar ajratiladi. Bunda fikrlar yuqoridan-pastga ketma-ketlikda - umumiy tushunchadan uning alohida qismlarigacha bog'liq yoritishga xizmat qiladi. Sxemada matn parchalari, tushuntirishlar, ko'chirmalardan foydalanish tavsiya etildi. Bunday yozuv talabaga savollarga javob berishda mazmunni to'g'ri va to'liq so'zlab berishga imkon beradi. Yozuvlarni aralash usulidan foydalanish ham loyixalarni muvaffaqiyatli bajarilishiga samarali ta'sirini berdi. Bunday aralash yozuvlar-eslatmalar yuqorida ko'rsatilgan usullarning barchasini (yoki bir nechta) birlashtiradi. Eng muhimi axborotlarni yozib eslashda vertikal yoki gorizontal sxemalardan foydalanishda talabalarning ijodiy yondashuvlari namoyon bo'ldi.

"Logopediya" moduli bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etish bo'yicha axborotlar bilan ishlashga mo'ljallangan samarali texnologiyalar nafaqat talabalar uchun, balki OTM o'qituvchilari uchun ham o'zining natijaviyligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidaci bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 104 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlash-tirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped. fanlari dokt. ilmiy dar. uchun diss. – T., 2007. 305 b
4. Ziyomuhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. – T.: Turon-Iqbol, 2006. 299 b.



O'QUVCHI - YOSHLARDA MATEMATIKAVIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI BO'LAJAK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

P.T.ABDUQODIROVA,
ADU katta o'qituvchisi

Maqolada o'quvchi-yoshlarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashning tarkibiy qismlari ko'rsatilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: kompetensiya, matematik savodxonlik, matematikaviy savodxonlik kompetensiyalari, pedagogik faoliyat.

В статье показаны компоненты подготовки студентов к будущей профессиональной деятельности через развитие у них навыков математической грамотности. В процессе обучения изложены основные требования к необходимому и достаточному уровню подготовке специалиста к педагогической работе.

Ключевые слова: компетентность, математическая грамотность, компетенция, математическая грамотность, педагогическая деятельность.

The article shows the components of preparing students for future professional activities through the development of their mathematical literacy skills. In the learning process, the basic requirements for the necessary and sufficient level of specialist training for pedagogical work are outlined.

Key words: competence, mathematical literacy, mathematical literacy, competence of mathematical literacy, pedagogical activity.

Dunyoda bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashning kollaborativ va intensiv usullaridan foydalanish xizmatlari keng tarqalib, innovatsion metodlarni qo'llash asosida matematikani o'qitish samaradorligini to'la qoplashga yo'naltirilmoqda. O'zbekistonda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali matematika o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va korporativ xizmatlarda ishtirok etishini ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratish vazifalari yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, "oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir". Binobarin, uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash dolzarb bo'lib hisoblanadi.



Mazkur masala bizda quyidagicha amalga oshirilmoqda: o'quvchi o'rta maktab (9-sinf) ni tugatishi bilan, qobiliyat turiga qarab o'qishini davom ettiradi yoki turli akademik litseylarga yuboriladi. Lekin, bu masalaning to'liq yechimi emas. Gap shundaki, hamma akademik litseylarda ham professor – o'qituvchilar tarkibi yoshlarning **kognitiv kompetensiyasini** kerakli yo'nalishda rivojlantirishga tayyor emas. Bunday imkoniyatga juda kam sondagi akademik litseylargina ega. Shuning uchun akademik litseylarda yoshlarning matematik savodxonlik kompetensiyasi (kognitiv kompetensiya) ga tashqaridan turibgina ta'sir qilish imkoni bor.

Hozircha akademik litsey o'quvchilari uchun olimpiadalar tashkil etish ta'sir qilishning eng yaxshi usullardan biri bo'lib kelmoqda. Bu matematika va fizikadan masalalar yechish bo'yicha o'ziga xos musobaqa bo'lib, talabalarda qiziqish uyg'otuvchi asboblarni tayyorlash, astronomik kuzatishlar, matematik o'yinlar, kompyuterda dasturlash kabilarni ham o'z ichiga oladi. Bunday olimpiadalar bir guruh ilmiy xodimlar hamda tegishli vazirliklar mutaxassislari tomonidan tashkil etiladi. Bunday olimpiadalar kognitiv kompetensiyani shakillantirib, ijodiy qobiliyatli yoshlarni ajratish imkoniyatini berishdan tashqari, ularni yoshligidan ilmiy izlanishlarga, ilmiy muammolarga qiziqishlarini uyg'otish imkonini beradi. Mamlakatimizda bunday turdagi olimpiadalar keng tarqalgan va rivojlangan, ular juda yuqori saviyada o'tkaziladi.

Oliy ta'limda esa talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik jarayonda quyidagilar:

- pedagogik voqelikni izchil idrok etish; fan sohasiga yo'nalganlik;
- pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash;
- shaxslararo muloqotni tashkil eta olish; o'z fani, faoliyat sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalana olish;
- o'quv axborotlarini boshqalarga yetkaza bilish; muayyan darajada shakllangan dunyoqarashni talab etadi.

Bu tarkibiy qismlar talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashning ajralmas shartlaridan hisoblanadi.

“Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan zamonaviy o'qituvchining kompetentligi yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim sifati va uzluksizligini ta'minlash va o'zining kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini



uzluksiz takomillashtirishi, kasbiy masalalarni yechishga moyil bo'lishi shart".

Talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun didaktik jarayonda quyidagilarga amal qilinadi:

- faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, unga ijodiy yondashish;
- o'z-o'zini namoyon qilish, vaziyatni tahlil qila olish;
- pedagogik jarayon ishtirokchilari bilan ijtimoiy muloqotda bo'lish; o'z ustida tinimsiz ishlash;
- vaziyatni baholash va muammolarni yechish, boshqaruv ko'nikmasiga ega bo'lish va boshqalar.

Talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini jumladan kognitiv kompetensiyani rivojlantirishda kelgusidagi mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishi, shuningdek, shaxsiy qadriyatlari, sifatleri, kvalifikatsiyasining namoyon bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Quyidagilar ta'lim-tarbiya jarayonida mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablari hisoblanadi:

- pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash, ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqani o'rnatish;
- tahsil oluvchilarda didaktik motivatsiyani shakllantirish; tahsil oluvchi shaxsining rivojlanish xususiyatlarini bilish;

AKT va xorij tillarini o'zlashtirish va amaliyotda qo'llay olish; umuminsoniy va umummadaniy qadriyatlardan xabardor bo'lish va ulardan faoliyati mobaynida foydalanish;

- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- ta'lim muhitiga yangilik kiritish, o'z fanini mukammal bilish;
- muloqatmandlik, bag'rikenglik, empatiyaga moyillik, yetakchilik, faollik va tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik;
- o'z faoliyatini tahlil qilish, kompetentlik samarasini rejalashtirish, maqsad va vazifa belgilash, bashorat (prognoz) qilish, o'zini namoyon eta olish, kamchiliklarini tuzatish va boshqalar.

Pedagogik faoliyat — pedagogning tahsil oluvchilarga ta'lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan kasbiy faolligidir. O'qituvchi bu mazkur faoliyatning bir necha turlarini bajaradi: *o'qitadi, tarbiyalaydi, yo'l - yo'riqlar ko'rsatadi, tashkil qiladi, targ'ibot yurgizadi, mustaqil bilim olish bilan shug'ullanadi*. Bularning hammasi bevosita yoki bilvosita o'qitish va tarbiyalash



vazifalarini hal qilishga yo'naltiriladi. Pedagogik faoliyat mobaynida motivatsion — mo'ljalli bosqich, vaziyatni tushunish bosqichi namoyon bo'ladi; motivlar tug'iladi, faoliyatga ruhiy tayyorgarlik vujudga keltiriladi, maqsad va vazifalar qo'yiladi va o'zgartiriladi; pedagogning tarbiyalanuvchilar ruhiy rivojlanishiga ta'sir o'tkazishi muvofiqlashtiriladi; pedagogik o'z - o'zini tahlil qilish usullari (diagnostika, bashorat, nazorat) dan foydalaniladi, qo'yilgan vazifa hal etiladi, yo'l quyilgan pedagogik nuqsonlar bartaraf etiladi.

Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o'z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, ob'yekt, sub'yekt va vositalardan tashkil topadi. Bular:

– *birinchidan*, pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini (ketma-ketligini) ta'minlaydi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o'tkazadi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

– *ikkinchidan*, pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad talaba maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishish osonlikcha kechmaydi. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va maqsadga erishish talabalar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur.

– *uchinchidan*, pedagogik (ta'lim, tarbiya) jarayonida talaba faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo talaba kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Bu maqsadni talabadan ko'ra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. Talaba esa ko'p hollarda, hayotiy tajribasi yetishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugun tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa to'la tasavvur qila olmaydi. O'qituvchi faoliyati ijodkorona faoliyatdir. Tajribasi ortib borgan sari pedagog dastlabki taqdim qilgan o'quv materiallaridan ko'ngli to'lmaydi, yangi-yangi materiallarni dars jarayonida qo'llashga harakat qiladi. Buning uchun unda ijodiylik hissi shakllangan bo'lishi lozim. Ijodiylik hissi bo'lsa, pedagog izlanadi, o'z ustida ishlaydi. O'zini hissiy tomondan tayyorlash - o'qituvchida ijodiylik hissini keltirib chiqaradi.

Eng muhimi o'qituvchi o'zining darsdagi hissiy munosabatlarini aniqlab olishi kerak. So'z orqali matematikadan o'quv materialini taqdim qilinyotganda o'qituvchi ohangga, imo-ishora, yuz ifodasiga, badiiylikka e'tibor berishi,



fikrlarning mantiqiy uzviyligiga rioya qilishi lozimdir. O'qituvchi darsga kirishdan oldin o'ziga ko'rsatma berishi maqsadga muvofiq.

Birinchi yo'nalish asosini pedagogning yuqori kasb etikasi tashkil etadi. Bu yo'nalish haqida M.O.Knebel, I.P.Volkov, V.F. Shatalov, M. Ochilov, O. Roziqov kabi olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Ularning fikricha, talabalar bilan bo'ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu yo'nalish asosida shakllanadi.

Ikkinchi yo'nalish - do'stona munosabatlar, o'quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do'stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta'minlaydi. Uchinchi yo'nalish, ya'ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilan talaba o'rtasida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Masofa juda uzoq bo'lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik kuchayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro'-e'tibori ortadi.

To'rtinchi yo'nalish - qo'rqitish asosidagi muloqot bo'lib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba'zi pedagoglar talabalarni qo'rqitish orqali muloqotda bo'ladilar. Chunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Bu o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladi.

Beshinchi yo'nalish - soxta obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo'lib, ba'zi yosh o'qituvchilar malakasi yetarli bo'lmaganligi uchun yolg'on ishlatadilar. Bunday usulni qo'llaydigan pedagogda umumiy pedagogik va kommunikativ madaniyat yetishmaydi. Demak, birinchi va ikkinchi yo'nalish asosida muloqotga kirishish - ta'lim va tarbiya jarayonining samarali kechishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalaridan kognitiv kompetensiyani rivojlantirish orqali bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, uni har tomonlama tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://G'G'prezident.uzG'uzG'listsG'viewG'2228>
2. M.O.Knebel Poeziya pedagogiki. Uchebnoye posobiye. 2019.
3. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh. A. Pedagogika nazariyasi.-Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2010.-278 b.;
4. Mamatov M.SH., Mahmudova D.M. Muammoli masalalar yordamida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi (uslubiy qollanma).-Toshkent: O'ZMU, 2012. –96 b.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA TALABA-YOSHLARNING KASBIY AUDITIV LAYOQATINI RIVOJLANTIRISH

G.R.SOBIROVA,
GulDU o'qituvchisi

Dunyo miqyosida ta'lim-tarbiya jarayonini innovatsion tashkil etish, xorij tillarini o'rganish va tahsil oluvchilarning lisoniy kommunikativligi bo'yicha kompetentligini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur maqola chet tillarni, ayniqsa, xalqaro muloqot vositasi hisoblangan ingliz tilini o'rganish masalasi, ya'ni, tilni o'qitish mazmuni, o'rganuvchilarning ehtiyojlariga mosligi hamda fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish masalasiga qaratilgan.

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim jarayoni, ingliz tili, kasbiy auditiv layoqat, talabalar, bo'lajak o'qituvchilar, pedagogik jarayoni, o'qitish usullari.

Особое внимание уделяется инновационной организации образовательного процесса во всем мире, изучению иностранных языков и развитию у студентов компетенций в области языкового общения. В этой статье основное внимание уделяется изучению иностранных языков, особенно английского, который является средством международного общения, преподавания языка, его соответствии потребностям учащихся и интересу к изучению предмета.

Ключевые слова: учебный процесс, английский язык, профессиональная слушательная способность, студенты, будущие учителя, педагогический процесс, методы обучения.

Particular attention is paid to the innovative organization of the educational process around the world, the study of foreign languages and the development of students' competencies in the field of language communication. This article focuses on the study of foreign languages, especially English, which is a means of international communication, language teaching, its relevance to the needs of students and interest in the study of the subject.

Key words: educational process, English, professional auditory ability, students, future teachers, pedagogical process, teaching methods

Mamlakatimiz Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan "2017-2021 yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" ta'lim tizimini tubdan isloh etish, xususan oliy ta'lim tizimini qayta qurish, kadrlar tayyorlashning yangi milliy modelini yaratish, pedagogik jarayonni demokratlashtirish, uni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonini zamonaviy innovatsion g'oyalar bilan boyitish va ta'lim mazmunini takomillashtirish, ta'lim tizimiga zamonaviy innovatsiyalar va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq maqsadli hamda mamlakat istiqbol



taraqqiyotiga aloqador bo'lgan keng ko'lamli ishlarni davom ettirishga qaratildi.

2017 yil 15 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da xam mamlakatda yangi mazmundagi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish vazifasi qo'yildi, uning tarkibida esa yangi mazmun va mohiyatdagi innovatsion oliy ta'lim tizimini shakllantirish bosh yo'nalish sifatida belgilab olindi. Bu nafaqat boshqaruv muammolari, balki ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirish asosida, eng avvalo, ta'lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning yo'l-yo'riqlarini aniqlash, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

"2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da jamiyat takomilining yangi istiqbol maqsadi – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish sifatida belgilab berildi. Shuningdek, o'ta muhim bo'lgan ijtimoiy-siyosiy yo'nalish – yoshlar tarbiyasida ham amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadlar belgilandi. Bu maqsad – ta'lim tizimini isloh qilish, uni qayta qurish, dunyo ta'lim tizimiga integratsiya qilish, uning mazmunini milliy istiqbol g'oyasi va milliy manfaatlar asosida davom ettirish, demokratlashtirish, yangilash, modernizatsiya qilish va liberallashtirish, shuningdek ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan qurollantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitish tushunchalarida o'z ifodasini topdi.

Kasbiy auditiv faoliyat yangi mahsulot yaratishga yo'naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirlari majmuasidan iborat bo'lib, ulardan maqsad yig'ilgan bilim, malaka, ko'nikma, texnologiya va ishlab chiqirish asboblari mana shu yangi mahsulotni keng miqyosda ishlab chiqarilishiga ishlatishtirish va uning samaradorligini ta'minlashdir.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan kuzatuvlarimiz natijasida ingliz tili mashg'ulotlarida talabalarning kelgusi faoliyati uchun muhim hisoblangan auditiv layoqatini o'stirish ko'p hollarda ularning tinglash va eshitish jarayonlari bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Biroq, bugungi kunda pedagogik amaliyotda talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda bir qator ziddiyatli muammolar mavjudligi aniqlandi. Bular:

- ingliz tilini o'rganar ekan, talabalar ona tilidagi til o'zlashtirish mexanizmlari bilan tanish bo'lganligi bois ularni o'zga tilga ko'chirishga harakat qilishadi. Natijada, til o'zlashtirishdagi kommunikativ va lingvistik tavsifdagi qiyinchiliklar mavjud bo'ladi. SHuningdek, axborot o'zlashtirishdagi semantik qiyinchiliklar vujudga keladi;
- eshitleyotgan o'zga tildagi nutqni o'zlashtirish uchun uni sintaktik va



pragmatik omillar yaxlitligida nutqiy voqelanishida morfologik vositalar – lug‘aviy va sintaktik shakl hosil qiluvchilar asosida qabul qilish, miyada qayta tushunish va uning ma‘nosini anglashdagi qiyinchiliklar vujudga kelishi bois, uzoq muddatli mashqlar bajarish lozimligi;

– auditiv o‘qitishda turli didaktik topshiriqlar va mashqlarning tizimlashtirilmaganligi;

– mashg‘ulotlik va o‘quv qo‘llanmalarda til o‘zlashtirish bo‘yicha leksik va grammatik tavsifdagi topshiriqlarning muayyan kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilmaganligi;

– o‘zga tildagi ma‘lumotni qabul qilishda grammatik shakllarning ma‘nolari lisoniy va pragmatik omillar hamkorligi jarayonida tegishli lug‘aviy birliklar (muloqot, nutq, yozma va og‘zaki nutq)ning muayyan tizimlashtirilmaganligi;

– lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishi, so‘z va qo‘shimchalarning ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanishi;

– nutqiy intensiya, og‘zaki va yozma nutq hamda muloqot jarayonida tartib va tartibsizlik holatlarining lisoniy va nolisoniy omillar bilan uyg‘un holatda o‘qitilmasligi;

– talabaning mashg‘ulot davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi va boshqalar.

Talabalarning kelgusi faoliyati uchun muhim hisoblangan auditiv layoqatini o‘stirish uchun o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiylikni ta‘minlanishi; ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi; pedagog va talabalarning hamkorligidagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etish lozimligi muhim hisoblanadi.

Talabalar va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda nutq faoliyati turlari *rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish* singari to‘rt asosiy bosqichda amalga oshiriladi. Bu izchillik o‘qituvchilar tomonidan to‘laqonli amalga oshirilsa, kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishdagi mavjud to‘siqlar muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin.

Rejalashtirish- faoliyat ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, rejalashtirish nutq o‘zlashtirish strategiyalarini aniqlash, kelgusida qanday til normalarini egallashga erishish ko‘zda tutilayotganligi, buning uchun qanday harakatlar, qanday izchillikda va qaysi muddatlarda bajarilishi kerakligi ya‘ni, nima, qayerda va qanday tartibda amalga oshirilishi lozimligini belgilab beradi. Faoliyatni rejalashtirish kelgusida amalga oshiriladigan ishning maqsadi, tarkibi, tuzilmasi va bajarish muddatlarini belgilash demakdir.

Ingliz tilidagi kasbiy auditiv nutqni o‘zlashtirish uchun qanday metodlardan foydalanish (funksional) vazifalarni belgilash (taksimlash)ni hal etish jarayoni



ishni *tashkil qilish* deb ataladi.

Rejalashtirish va tashkil qilish bosqichlarini to'g'ri bajarish tufayli kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirish samarali kechadi.

Amaliyotdan shu narsa ma'lumki, o'qituvchilarning real bajarayotgan ishlari ularga qo'yilayotgan talablarga har doim ham mos kelavermaydi. Birgalikdagi ish samarali bo'lishi uchun :

- birinchidan, ijrochilar ulardan qachon, qanday natijalar kutilayotganligini yaxshi tushunishlari;

- ikkinchidan, ular kutalayotgan natijaga erishishdan manfaatdor bo'lishlari;

- uchinchidan, ular o'z ishlaridan qoniqish hosil qilishlari;

- to'rtinchidan, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit unumli ishlash uchun qulay bo'lishi zarur.

Nutq faoliyati turlarini rivojlantirishda birgalikdagi faoliyat yaxshi rejalashtirilgan va uyushtirilgan bo'lsa ham boshqaruvchi yuz berayotgan o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat bildirishi, buning uchun esa etarli axborotga ega bo'lishi lozim. Bunday axborotni olish va ishning borishiga tuzatish kiritish zarurligini aniqlash uchun *nazorat qilish* deb ataladigan maxsus boshqaruv harakatini amalga oshirish zarur.

Rejalashtirish, tashkil etish, o'qituvchilik qilish va nazorat qilish murakkab tuzilma bo'lib, u vaziyatni tahlil etish, prognozlash, maqsad qo'yish, samaradorlikni baholash, ish rejasini biron-bir variantini tanlash haqida qaror qabul qilishni ham o'z ichiga oladi.

Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirish uchun yangicha qulay usulda, kam kuch va vaqt sarflab, ko'proq natijalarga erishish, ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamasdan faoliyatni tashkil etish tushuniladi. Pedagoglarning faoliyatini ta'limni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga yo'naltirish kafolatidir. Chunki, zamonaviy pedagog barcha talablarga to'liq javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андриянова В.И. Базовый критерий современной личности - свободное, критическое, самостоятельное, творческое мышление / В научно-метод. пособии - «Формирование интеллектуального, духовно-нравственного и физического потенциала обучающихся общеобразовательной школы Республики Узбекистан на современном этапе»/ под ред. академика пед. наук Р.Х.Джурева. - Т., 2005. ст.16-34

2. Давлатова Г.Н. Лингвокультуралогия в развитии интеллектуально-творческих способностей обучаемых. ст. 440-466.



TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA OID MILLIY VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

F.R. TESHABOYEVA,
Qo'qon DPI katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish bo'yicha dunyodagi eng ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish, global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish, oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotda qo'llash va "nostandart fikrlash" borasida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, o'qitish, metod, jarayon, sifat, o'qituvchi, texnologiya, kasbiy kompetensiya

В статье рассматривается опыт самых передовых стран мира в реформировании, улучшении и повышении качества высшего образования, активном участии в глобальных образовательных процессах, применении лучших мировых практик в развитии высшего образования и «нестандартном мышлении».

Ключевые слова: высшее образование, обучение, метод, процесс, качество, учитель, технология, профессиональная компетентность.

This article discusses the experience of the world's most advanced countries in reforming, improving and improving the quality of higher education, active participation in global educational processes, the application of best international practices in the development of higher education and «non-standard thinking».

Key words: higher education, teaching, method, process, quality, teacher, technology, professional competence

Oliy ta'lim uzluksiz ta'limning muhim bosqichi bo'lib, davlatning kadrlarga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish vazifasini bajaradi.

Oliy ta'limni isloh qilish, amaliyotga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, o'qitish jarayonida axborot muhitini yaratish, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, natijalarni baholashning optimal mezonlarini joriy etish kabi masalalar davlatning qator xujjatlarida alohida vazifalar sifatida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli farmonida, jumladan, ta'limning uzluksizligiga erishish maqsadida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash; individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish; talabalarning mustaqil ta'lim soatlarida, nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'quv jarayonida kompetensiyalarni



kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan. Albatta, bu vazifalar oliy ta'lim o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, variativ o'quv dasturlarisiz va optimallashtirilgan o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etishsiz hamda eng muhimi professor-o'qituvchilarning innovatsion tafakkurisiz amalga oshmaydi. Qachonki, o'qituvchining o'zida yangilikka intilish, zamon bilan hamnafas bo'lish, davlatning ta'lim oldiga qo'yayotgan talablarini qadriyat darajasiga ko'tarish hissi shakllanmas ekan, talabalarda kasbiy motivatsiya, maqsadga erishish uchun intilish, fanlarni o'zlashtirishga mas'uliyatni tarkib toptirib bo'lmaydi.

Bugungi kunda oliy ta'lim islohatlari nafaqat O'zbekistonda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham tezkor sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu tezkorlik zamon talabi, axborot ko'lamining va inson tafakkuri imkoniyatlarining kengayib borayotganligi bilan bog'liqdir.

Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim mazmuni kredit-modul tizimi asosida takomillashtrildi. Jahon amaliyotida ilg'or tendensiya sifatida Yevropa yagona ta'lim muhitining Bolonya tizimi, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari ustuvorlik qilmoqda.

Oliy ta'limni modernizatsiyalanishida kreativlik, originallik kabi tushunchalarning ham mazmunga ham jarayonga tatbiq etilishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Doktor de Bono "nostandart fikrlash" atamasiga asos solgan holda uning uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida shakllantirilishini taklif etgan. Asosan, olim ta'lim oluvchi tomonidan axborotlarni qabul qilish va ularni amaliyotda qo'llash o'rtasidagi o'zaro munosabatga izoh bergan.

Bugungi kunda xayot faoliyatini va jamoatchilik kommunikatsiyasini vertuallashtirish sharoitida XXI asr talabasining extiyojlariga moslashuvchan yangi yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Oxirgi paytlarda rivojlangan malakatlarning oliy ta'lim tizimida "Aylantirilgan ta'lim" "Perevyornutiy klass" (ushbu texnologiya tadqiqotda shu ma'noda qo'llanildi) texnologiyasi keng ko'llanilmoqda, ushbu texnologiya aralash ta'limning bir shakli hisoblanadi. Bu texnologiyaning qo'llanilishi avvalo zamon o'zgarishi, talaba hamda o'qituvchi o'rtasidagi faoliyatning insonparvarlashtirilishi, ijodiy erkinlik, mustaqil qaror qabul qilishga imkon berish kabilar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning muntazamliligi talabalarni mustaqil ta'lim olish shakl va yondashuvlaridan foydalanishga undamoqda. Shuning uchun oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari



oldida sifatli kadrlar tayyorlash imkonini beruvchi ta'limiy faoliyatni tashkil etishning shakl va usullarini tanlashda kasbiy sezgirlik taqozo etilyapti.

Yevropada masofaviy o'qitish, elektron va internet resurslari, raqamli texnologiyalar elementlari uyg'unlashgan gibrid yoki aralash o'qitish texnologiyasidan keng foydalanilmoqda. Jumladan, Fransiyada "Aylantirilgan ta'lim" texnologiyasi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda qo'llaniladi. "Aylantirilgan ta'lim" metodi muammoli o'qitish tamoyillariga asoslanadi va o'ta moslashuvchanligi bilan talabalarni jarayonga to'liq jalb etish imkonini beradi, natijada talabalarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash hamda qo'yilgan maqsadga erishish vazifalarini hamkorlikda echish ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Aylantirilgan ta'lim" texnologiyasining eng muxim jihati bilim berish jarayonini to'liq yoki qisman mustaqil o'rganish jarayoniga almashishidir. Ushbu texnologiyaning boshqa texnologiyalardan farqli jihati shundaki, bunda mashg'ulotning asosiy qismi uyda amalga oshiriladi, uy vazifa esa oliy ta'lim muassasasida amalga oshiriladi. Uy sinfga aylanib, sinf esa uyga aylantiriladi.

N.V. Tixonova "Aylantirilgan ta'lim" texnologiyasidan oliy ta'lim muassasasida foydalanishning ahamiyatini ochib bergan. "Aylantirilgan ta'lim" haqidagi kitobida M.Lebren shunday deydi: «Aylantirilgan ta'lim» yangi metod emas, balki tafakkurning yangi obrazidir, u orqali auditoriya ishlari, auditoriyadan tashqaridagi faoliyat evaziga optimallasadi, bunda o'qituvchining vazifasi talabalarni auditoriyadan tashqari mustaqil bilim izlashga undash bo'lib, bunda e'tiborni nafaqat ma'lumot izlashga, balki ushbu ma'lumotlarning asosli ekanligini tahlil qilishga o'rgatishdir".

Garvard universiteti fizika o'qituvchisi E.Mazur talabalarga oldindan ma'ruza materiallarini berib, dars jarayonida savol-javob o'tkazgan, talabalardagi bo'shliqlarni to'ldirgan. U an'anviy ma'ruzadan farqli ravishda analogik masalalarni echimini ko'rsatmagan, buni talabalarni mustaqilligiga ko'yib bergan. Natijada talabalar oraliq va yakuniy testlarda yuqori natijalarni ko'rsatgan.

"Aylantirilgan ta'lim" texnologiyasi ilk bor 2007 yil Amerikada umumta'lim maktabining kimyo o'qituvchilari D.Bergman va A.Semslar tomonidan qo'llanilgan. Ular o'quvchilarga qog'ozli emas, balki videodarslarni tarqatib, uyda o'rganib kelishga imkon berishgan. Amerika oliy ta'lim muassasalarida ommaviy o'qitish tadqiqotchilik faoliyati bilan uyg'unlashtirib olib boriladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi mazmuni va o'qitish usullari hamda mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha horijiy tajribalar o'rganilmoqda Bundan



tashqari oliy ta'lim tizimi xususiyatlari hamda ilg'or tendensiyalariga xos etakchi xorijiy davlatlarning shu tizim amaliyotida trend yondashuvlar, keng ommalashgan tajribalar ham o'rganildi.

O'zbekistonda oliy ta'limni tashkil etish va o'qitish metodlarini takomillashtirishga oid olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil etildi.

Oliy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari, ta'lim didaktikasi, o'qitish uslublarini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlardan foydalanish masalalari R.X.Djuraev, R.Safarova, F.R.Yuzlikaev, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, J.Tolipova, Sh.Shodmonova, M.B.Urazova, Sh.S.Shodmonova va boshqalarning, oliy ta'lim jarayonida AKT dan foydalanishning imkoniyatlari U.Sh. Begimqulov, A.Abduqodirov, O.Parpiev, B.B.Elov, S.Q.Tursunov, M.Fayzieva, M.Divanova, N.I.Taylaqov va boshqalarning, talabalarni shaxs sifatida shakllantirish masalalari M.L.Aripova, B.Gapparov, S.N.Jo'raeva, K.Yu.Qilichova, S.R.Muxammedova, Z.M.Xodjageldieva, I.Qudratov, N.A.Qayumova, M.X.Tadjieva, Sh.K.Raimovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida asoslab berilgan.

X.Yo.Najmiddinova talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasini tizimlashtirgan, uning metodik tavsiyalarida tizimlilik, oddiydan murakkabga yondashuvning ustuvorligi, talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

S.Q.Tursunov pedagogika oliy ta'lim muassasalarida elektron axborot resurslarini joriy qilishning metodik asoslarini ochib bergan bo'lsa, M.X.Allamberganova interaktiv o'quv majmualardan foydalanishning imkoniyatlarini ochib bergan.

A.A.Xalikov tamonidan oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik samarali mexanizmlar ochib berilgan bo'lib, bugungi kunda ham olimning talabalarda o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini namoyon qilish, manba bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid tavsiyalari amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Yetakchi xorijiy davlatlarda oliy ta'limni samarali tashkil etish, kadrlar tayyorlash jarayonini xalqaro ilg'or tendensiyalar asosida modernizatsiyalashga doir ma'lumotlarni tahlil qilish hamda O'zbekistonda bo'lajak mutaxassislarni raqobatbardosh etib tayyorlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarni o'rganish orqali quyidagi xulosalarni asoslash mumkin:

– oliy ta'lim mamlakatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ta'sirga ega uzluksiz ta'lim bosqichidir;



- oliy ta’lim mazmuni mehnat bozori talabidan kelib chiqib shakllantirishi lozim;
- oliy ta’lim o’quv rejalarida auditoriya va auditoriyadan tashqari olib boriladigan mashg’ulotlar uchun soatlar xajmi talabalarning ham nazariy ma’lumotlarni o’zlashtirishlari va amaliy ko’nikmalarni egallashlariga mos belgilanishi hamda taqsimlanishi maqsadga muvofiqdir;
- oliy ta’limni tashkil etishda bo’lajak mutaxassisda kasbiy kompetensiyalarning intensiv shakllanishiga ustuvorlik berishga ehtiyoj mavjud;
- mamlakatimizda oliy ta’lim mazmunini optimallashtirishda kredit-modul tizimi va “bir umrlik ta’lim” tamoyillariga asoslanish jahon maydoniga chiqish qadamlaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F.U. “Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari”. (DSc) ped.fan.dok. disc.avtoref.Toshkent 2020
2. Najmiddinova X.E. “Oliy ta’lim muassasalarida algebrani o’qitishda talabalarning mustaqil o’quv faoliyatini shakllantirish metodikasi”. Mat.fan. nom. diss. avtoref. Namangan 2011
3. Tursunov S.Q. “Ta’limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari”. Ped .fan. nom. diss. avtoref Tashkent 2011.



ИННОВАЦИОННЫЕ ФОРМЫ НЕПРЕРЫВНОГО ПОВЫШЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УРОВНЯ ПЕДАГОГОВ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЯ)

А.А.УСМАНОВА,

доцент Филиала РГУ им. И.М.Губкина в г.Ташкенте

Мақолада Хитойда ўқитувчиларнинг билим даражасини доимий равишда оширишнинг инновацион шакллари таъкидланган. Эътибор жамиятнинг замонавий педагогик кадрларга бўлган эҳтиёжга, таълимнинг янги муаммоларини сифатли ҳал этишга, самарали ва ижодий меҳнат шароитларига қаратилган.

Калим сўзлар: масофадан ўқитиш, педагогика, анъанавий ўқитиш шакллари, ўқитишдаги янгилик, ўқитувчини қайта тайёрлаш.

The article highlights innovative forms of continuous improvement of the educational level of teachers in China. Attention is focused on the needs of society in modern teaching staff, the qualitative solution of new problems of education, effective and creative working conditions.

Key words: distance learning, pedagogy, traditional forms of learning, innovation in learning, teacher training.

В статье освещены инновационные формы непрерывного повышения образовательного уровня педагогов в КНР. Акцентируется внимание на потребности общества в современных педагогических кадрах, качественном решении новых задач образования, эффективных и творческих условиях деятельности.

Ключевые слова: дистанционное обучение, педагогика, традиционные формы обучения, инновации в обучении, повышение квалификации педагогов.

Глобальные изменения, происходящие в настоящее время в области образования в большинстве стран мира, делают актуальным систематическое и объективное изучение международного опыта развития образования в этих странах, в том числе и опыта Китая, как наиболее яркого и динамично развивающегося региона нашей планеты. В последние десятилетия система образования КНР находится в состоянии активного реформирования, при этом базовым звеном реформирования образования является школа. Как известно, результаты учебно-воспитательной деятельности напрямую зависят от профессионализма и общей культуры педагогов. Поэтому китайское общество и образование сегодня нуждаются в современных педагогических



работниках, способных качественно решать новые задачи образования, эффективно и творчески работать в новых условиях современной педагогической действительности. В этой связи особую актуальность в Китае приобретает совершенствование последиplomного педагогического образования, обновления его содержания и поиска новых форм профессионального совершенствования учителей. Поскольку в системе образования наблюдается как стремительное развитие новых форм обучения, так и модификация традиционных форм, китайские ученые уделяют значительное внимание их классификации. Существует несколько вариантов классификации форм обучения, которые осуществляются по различным признакам. Так, например, формы повышения квалификации учителей, используемые в Китае, можно квалифицировать по количеству участников на: коллективные – лектории, теоретические семинары, семинары-практикумы, тренинги, предметные недели, выставки, конкурсы мультимедийных презентаций, научно-практические конференции; групповые – объединения учителей по профилям, творческие группы, деловые игры, взаимопосещения уроков и рефлексия, просмотр и обсуждение видеозаписей «показательных» уроков, семинары; индивидуальные – наставничество, консультации и собеседования, работа над индивидуальной творческой темой, созданием мультимедийных презентаций, рефлексивный анализ собственных уроков, самообразование.

Лекция как традиционная форма обучения, преимущество которой в завершенности и цельности восприятия логики и взаимосвязи изложенного материала. Поиск новых методов преподавания привел к появлению лекций-дискуссий, лекций-диспутов, видео-лекций.

Семинар как форма обучения предполагает активное взаимодействие участников образовательного процесса и активизацию творческих способностей. Они способствуют прочному усвоению предмета, учат отстаивать свою позицию и считаться с мнениями других.

Рефлексивное наблюдение и активная практика как формы обучения включают в себя посещение и проведение уроков, их анализ и оценку, а также другие виды практической деятельности. На современном этапе развития последиplomного педагогического образования в Китае рефлексия понимается как один из важных средств самопознания учителя в профессиональном самосовершенствовании, «увязывание» прежнего опыта с полученными новыми знаниями, способом формирования его творческих каче-



ственных характеристик, способность к постоянному анализу и оценке собственной профессиональной деятельности. Китайский ученый Ли Сянь, подчеркивая значение рефлексии, акцентирует внимание на том, что без неё даже 20-летний педагогический опыт превращается всего лишь на 20-кратное повторение опыта первого года работы. Следует заметить, что исходной точкой для теоретического обоснования этой формы обучения часто служит «формула» Д.Познера: «опыт + рефлексия = развитие», используя которую китайские исследователи резюмируют, что умение анализировать свой опыт, делать важные выводы и оценки ведут педагога к развитию профессионального мастерства.

Метод основан на рассмотрении конкретных ситуаций и направлен на формирование необходимых профессиональных и личностных качеств, умений, навыков, он соответствует особенностям образования взрослых, поскольку сочетает в себе теорию и практику. Этот метод активного проблемно-ситуационного анализа зародился в США, затем проник в Китай в 90-е годы XX века, когда происходило стремительное обновление содержания образования и были созданы благоприятные предпосылки для применения интерактивных методов обучения. Метод кейсов вызвал особый интерес у китайских педагогов и в настоящее время его успешно применяют в передовых учебных заведениях, в том числе и учреждениях последиplomного педагогического образования.

Микропреподавание как инновационный метод широко используется в системе последиplomного и допрофессионального педагогического образования. Сущность метода заключается в упрощении учебной ситуации. Такое преподавание используется с целью отработки умений, овладения определенным учебным материалом, демонстрации различных методов преподавания на практике, создает возможность усиления контроля за педагогической деятельностью. На микроуроках ведется видеозапись, которая позволяет впоследствии многократно просмотреть тот или иной фрагмент урока, анализировать ошибки. Написание и защита научно-исследовательских работ как форма обучения формирует у учителей навыки ведения исследовательской деятельности. Написание работы способствует углубленному изучению литературы и аутентичных источников по заданной теме, овладению методами современных научных исследований и развития навыков самостоятельного творческого мышления. С целью повышения результативности учебной деятель-



ности в настоящее время в Китае используются в синтезе традиционные и инновационные формы обучения. В качестве примера одного из таких педагогических нововведений приведем форму обучения «меню» («шведский стол»), которая широко используется в Институте повышения квалификации г. Шэньчжэнь (провинция Гуандун). При этой форме организации учебного процесса учителю предоставлена возможность выбрать из многообразия предлагаемых тематических блоков наиболее значимые и интересные для него. Поскольку тематика предлагаемых блоков достаточно широка и у педагогов есть возможность выбора, такая форма обучения «позволяет удовлетворить потребности и интересы практически всех учителей, очень положительно влияет на расширение профессиональных знаний и повышение профессионально-теоретического уровня». Инновационные формы используются не только во время курсового обучения, но и при повышении квалификации учителей на базе школы: работа творческих групп, проведение научных исследований, тематические проекты, создание интернет-портфолио, конкурсы мультимедийных презентаций, рефлексивный анализ, коучинг и другие. Традиционно повышение квалификации учителей в Китае проводилось по дневной, вечерней и заочной формами обучения, но в эпоху бурного развития информационно-коммуникативных технологий, реальной альтернативой традиционного обучения становится дистанционное обучение, при котором в учебно-воспитательном процессе используются лучшие инновационные средства и формы обучения, основанные на новейших технологиях. Впервые дистанционное обучение появилось в Китае в 80-е годы XX века в форме теле-радио обучения. Со временем новый толчок развитию дистанционного образования в стране дало использование компьютерных сетей, возможность общаться в режиме реального времени. В первом десятилетии нового века под руководством Министерства образования в Китае был создан Национальный Интернет-альянс педагогического образования www.jswl.cn, задачей которого является «интеграция спутникового телевидения, компьютерной сети Интернет и системы педагогического образования, для общего применения качественных образовательных ресурсов с целью проведения крупномасштабного, экономически выгодного и эффективного непрерывного педагогического образования». Создано значительное количество образовательных сайтов, посредством которых проводится дистанционное повышение квалификации китайских учителей. Особенно актуальной дистанционную форму обучения



делает то обстоятельство, что около 80% всей 10-миллионной «армии» китайских школьных учителей являются жителями сел и уездов, и у них ограничены возможности принимать участие в обучении на базе университетов либо институтов повышения квалификации. Подчеркивая преимущества использования дистанционного обучения, китайские исследователи отмечают, что оно позволяет охватить большее количество учителей, чем традиционное; сокращает не только стоимость обучения, но и расходы на проезд и проживание в гостиницах; дает возможность доступа к образовательному пространству без временных, территориальных ограничений и использования систематизированных каталогов информационных источников; минимизирует негативные последствия отрыва учителя от работы и семьи. Особенно привлекательны в дистанционном обучении, по мнению Ян Чинго, является мобильность информации, гибкость и адаптивность, как содержания, так и процесса обучения, доступность и индивидуализация.

Изложенное выше позволяет сделать вывод о том, что Китай планомерно и эффективно продвигается в сфере последиplomного педагогического образования к мировым стандартам, сочетая в учебном процессе как традиционные многократно апробированные формы, так и инновационные, направленные на развитие у слушателей нового мышления, востребованного в современных условиях.

Литература:

1. Ли Шэньпин. Новый виток педагогических реформ и инноваций в педагогическом процессе непрерывного образования учителей начальных и средних школ // Исследования непрерывного образования. – М., 2007. – № 1. – С. 18-21.
2. Ли Сянэ. Проблемы и рекомендации в педагогической рефлексии // Педагогические исследования. – М., 2010. – № 2. – С. 83-86.
3. Лю Шушен, Лю Фан. О планировании учебной программы непрерывного образования педагогов // Подготовка учителей начальных и средних школ. – 2009. – №8. – С.6-9.
4. Ян Цин Кун. О многообразии подходов к подготовке педагогов к непрерывному образованию // Профессионально-техническое образование. – М., 2006. – № 10 (250). – С. 37-38.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 22.12.2020 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**